

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**Qudratov Ismatilla
Odilov Asqarali**

**CHOLG'U ASBOBIDA IJROCHILIK KO'NIKMA VA
MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH**
(Qashqar rubobi misolida)



Samarqand

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qudratov Ismatilla
Odilov Asqarali**

**CHOLG'U ASBOBIDA IJROCHILIK KO'NIKMA VA
MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH**
(Qashqar rubobi misolida)

Uslubiy qo'llanma

SamDU o'quv-uslubiy kengashining
2015- yil 31- mart № 7- sonli majlis
qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

SAMARQAND - 2015

UDK 787:371.3
KBK 85.315.3
O' 474

Qudratov I, Odilov A. Cholg'u asbobida ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish (Qashqar rubobi misolida). Uslubiy qo'llanma. – SamDU nashri, 2015. – 86 bet.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarining «musiqiy ta'lim» yo'nalishi o'quv rejasidagi «Cholg'u ijrochiligi» mashg'ulotlarini yakka tartib shaklidan guruh shaklida tashkil etish tartibiga o'tishi munosabati bilan darslarni yangicha tartibda uyushtirish, o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularni cholg'u ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish o'ziga xos pedagogik yondashuv, ish shakli, usul va vositalarini qo'llash ehtiyojini vujudga keltirdi. Ushbu uslubiy qo'llanma mana shu yo'ldagi dastlabki urinishlardan biri sifatida yaratildi.

Qo'llanma ixtisoslashgan musiqa maktablari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining musiqiy ta'lim yo'nalishi, pedagogika kollejlarning musiqa o'qituvchilari va o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan «Qashqar rubobi» cholg'u ijrochiligi faoliyatida foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrir:

dotsent **B.Muranov**

Taqrizchilar:

dotsent **N.Qiyomov**, o'qituvchi **B.Boltayev**

@ Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2015

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda musiqa san'atini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy, ma'naviy-madaniy hayotimizdagi nufuzini oshirish masalalariga juda katta e'tibor berilayotganligi, musiqa maktablari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi musiqa ta'limi yo'nalishlarida (bolalar ijodiyoti markazlari, badiiy havaskorlik to'garaklari) ta'lim mazmuni, sifat va samaradorligini ham zamonaviy talablarga mos darajada uzluksiz takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Pedagogik tajribalar va pedagogik amaliyotlar jarayonidagi kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va hatto umumta'lim maktablarining faoliyatida, xususan, musiqa fanlarini o'qitilishida o'z yechimini kutayotgan jiddiy muammolar mavjud. Bu holat, ayniqsa, ta'lim muassasalarida yetakchi yo'nalish hisoblanmish «cholg'u ijrochiligi» mashg'ulotlarini o'tilishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Buning asosiy sabablari asosan ikki holatda kuzatilmoqda.

1. Ma'lumki, mamlakatimizda oliy ma'lumotli musiqa o'qituvchilari tayyorlash asosan pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi «musiqiy ta'lim» yo'nalishi zimmasidadir. Ushbu oliy o'quv yurtlarini tugatgan mutaxassislarning aksariyati umumta'lim maktablaridan tashqari ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ham faoliyat ko'rsatishadi. Ularning pedagogik faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning ko'pchiligi oliy pedagogik ta'limga to'g'ridan-to'g'ri umumiy o'rta ta'lim bosqichidan kirib kelganlar bo'lib, (bolalar musiqa va san'at maktablari, san'at va pedagogika kollejlari tahsil olmagan) to'rt yillik tahsil ularni kasbiy faoliyatining eng asosiy fanlari, ya'ni cholg'u ijrochiligi, dirijyorlik, vokal ijrochiligi, xor-dirijyorligi kabi sohalaridan mukammal nazariy bilim, amaliy ijrochilik malakalarini egallashlari uchun yetarli bo'lmaydi.

2. Ta'lim sohasida izchil sur'atda amalga oshirilayotgan islohatlar tufayli ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarining moddiy bazasini mustahkamlash, ta'lim

mazmuni, sifatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish sohasida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi, darslik, o'quv qo'llanmalar, zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlandi. Shunga qaramasdan, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari, san'at va pedagogika kollejlari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining cholg'u, vokal, dirijyorlik, xor-dirijyorligi kabi asosiy fanlarni o'qitilishi uchun zarur uslubiy manbalarga ehtiyoj dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Chunki, boshlang'ich ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi-rahbarning metodik jihatdan tayyorgarligiga bog'liq bo'lishi ilmiy tadqiqotlarda o'z isbotini topgan.

Shulardan kelib chiqqan holda, mazkur uslubiy qo'llanmada ta'kidlab o'tilgan ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida «cholg'u ijrochiligi» mashg'ulotlarini tashkil etish, tizimlashtirish, musiqa asarlari ustida ishlash hamda o'quvchilarni zarur bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularni ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlashning o'ziga xos metodik tizimi yoritib berildi.

1. O'zbek milliy cholg'u sozlarining tarixiy shakllanish jarayonlari va turlarining tavsifi.

Reja:

1. Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyati haqida ma'lumot beruvchi manbalar.
 2. O'rta Osiyo zaminidan yetishib chiqqan qomusiy olim, mutafakkirlarning musiqa ilmi taraqqiyotiga qo'shgan hissalar.
 3. Zamonaviy musiqashunoslikda milliy cholg'ular tarixini o'rganish bosqichlari.
 4. Qadimiy Xorazm, Sosoniylar hukmronligi, IX-X asrlar uyg'onish davri, temuriylar davrida XIV-XV asrlarda musiqa san'ati rivojlanishi.
- Tayanch iboralar:** *qadimgi cholg'ular: chiltor, shoxrud, ud, nay, nog'ora, doul, chang.*



Ud chalayotgan ayol (**Samarqand. Afrosiyob** yodgorliklari)

O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Darhaqiqat, xalq musiqa merosidan, kuy va qo'shiqlardan ilhom olmagan musiqa san'atining biror-bir sohasini topishi qiyin.

Musiqashunos olimlar, tarixchi – arxeologlarning ilmiy izlanishlari va O'rta Osiyo zaminidan yetishib chiqqan qomusiy olim va mutafakkirlarning ilmiy tadqiqotlarining dalolat berishicha, qadimiy Xorazm, Baqtriya va So'g'd zaminida eramizdan bir necha asr oldin nihoyatda boy va rang-barang musiqa san'ati mavjud bo'lgan. Ayritom, Tuproq qal'a, Afrosiyob kabi ko'hna shaharlardan topilgan tasviriy san'atga oid topilmalar, musiqa hayotning turli

sohalariga keng joriy qilinganligidan va har bir davrning o'ziga xos musiqa cholg'ulari, kuy-qo'shiq, raqslari bo'lganligining va ular tarixiy rivojlanish jarayonida takomillashib borganidan darak beradi.

Afrosiyob ko'hna shaharlaridan topilgan madaniy yodgorliklar tasviriy san'atga oid topilmalar, toshlarga o'yib ishlangan rasmlar, cholg'u sozlarining tasvirlari, mohir ijrochilarning qo'llaridagi chang (arfa), udsimon, naysimon cholg'u asboblari uzoq taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tganligini ko'rsatadi.

Qadimgi dunyoda, arab istilosidan oldingi davrlarda yozilgan, bevosita musiqa san'atiga oid ilmiy risolalar bizgacha yetib kelmagan bo'lsa ham, undan keyingi VIII-XI asrlarda va undan keyingi davrlarda yaratilgan ko'plab kitoblarda o'tmish musiqa san'ati, cholg'u sozlari, ularning tuzulishi, ijrochilik xususiyati haqida ancha keng ma'lumotlarni uchratamiz. Abu Nasr Forobiyning "Katta musiqa kitobida", "Fozil odamlar shahri", Xorazmiyning "Ilmlar kaliti", Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari, Firdavsiyning "Shohnoma", Nizomiyning "Xusrav va Shirin", Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abdul Qodir Marog'iy, Az Zamaxshariy, Mavlono Kavkabiy, Darvesh Ali Changiylarning bevosita musiqa ilmi va adabiy asarlarida qadimgi zamon musiqasiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Sharq musiqa asarlarida Borbad Marvaziy (O'rta Osiyo va Eron xalqlari qadimiy musiqa madaniyatining mashhur namoyondasi) Sarkash, Ozodvor, Naqshaga o'xshagan zabardast cholg'uchi, bastakor va musiqashunoslarning ijodiga keng o'rin berilgandir. Ular ijro etgan musiqa asarlarining nomlari, cholg'u sozlari, ularning ichki tuzilish, ko'rinishlari, ovoz tembrlariga oid tushuncha va iboralar, shuningdek, ijrochilik an'analari ta'rif beriladi.

Musiqa yo'llari turli toifa va turkumlarga umumlashtirilgan. O'rta Osiyo va unga yaqin xalqlar-Eron, turkman, ozarbayjon, uyg'ur, tojik xalqlarining arab iste'losidan oldingi musiqa madaniyatida eng mashhur bo'lgan turkum Xusravoniy deb nomlanadi. Bu turkumga "Ganji arus" (Kelinchak ganji), Ganchi gov (Sigir ganchi), Ganchi Faridun (Faridun Ganchi), "Kini Siyovush" (Siyovush uchun qasos) va boshqlar kirgan. Har bir "Xusravoniy" (Xusravoniy-shohona, ya'ni eng mukammal musiqa turi) ikki qismdan va o'z navbatida kichik bo'limlardan tuzilganligi hamda bu kuylar ovoz va cholg'ularda ijro etilganligi ta'riflanadi.

IX asrdan boshlab O'rta Osiyo va umuman o'rta va yaqin Sharqda ijtimoiy va aniq fanlarni rivojlanish jarayoni, buyuk mutaffakkir olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino hamda ularning izdoshlari Safiuddin Urmaviy, Abduqodir Marog'iy, Az Zamaxshariy, Mavlono Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy, Abdurahmon Jomiy va boshqa o'nlab ajoyib musiqashunoslarning nomlari bilan bog'liq. Ular boshqa fanlar qatori musiqa ilmini ilg'or g'oyalar bilan boyitib, ajoyib kashfiyotlar qildilar, hattoki ko'plab musiqa cholg'ularini yaratdilar, ularni takomillashtirdilar va shu bilan jahon musiqa fani(ilmi)ga juda katta hissa qo'shdilar.

Musiqa ilmi masalalarini atroflicha chuqur yoritishi jihatidan o'z davrida tengsiz bo'lgan Forobiyning «Musiqa haqida katta kitobi», (Kitab-ul musiqa al-

Kabir) jahon musiqa fanining shoh asarlaridandir. Bu asar orqali Forobiy musiqani mustaqil ilm darajasiga ko'targan. Kitob ikki qismdan iborat bo'lib, 1-qismida musiqa ilmining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan, ikkinchi qismi esa o'tmish olimlarining musiqa haqidagi (ilmi) ma'lumotlariga "izoh"lar berilgan.

Forobiyning ushbu kitobida tovushning musiqiy va fizik xususiyatlarini turli cholg'ular va ularning parda tuzilishlari misolida o'rganiladi. Tovushning akustik xususiyatlari, tovush, ton, parda, intervallar hosil bo'lishi, oktava, prima, intervallar miqdori, pardalar bosqichlarining ifodalanishi ilmiy asoslanadi. Bu o'rinda cholg'u asboblarning torlari va uning dastasida parda bosadigan barmoqlarning nomlaridan kelib chiqishi qayd etiladi. Bunga musiqa risola odatda, qadimiy kasbiy musiqaning yetakchi sozi ud cholg'usi asos qilib olingan. Kitobda yozilishicha, Forobiy ud soziga beshinchi torni o'rnatgan.

Forobiy zamonida nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi eng muhim vosita cholg'u asboblari hisoblanadi. Musiqa asboblari o'rganish, parda tuzilmasini aniqlash nazariy fikrlarni dalillashga yordam bergan. Sozlar vositasida Forobiy hattoki musiqa tarixining katta davrlarini ifodalaydi.

Forobiy o'z zamonasining cholg'u asboblari mukammal o'rgangan. U ud, tanbur, rubob, qonun, nay, mizmor, surnay va boshqa cholg'ular to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldiradi. Chunonchi, torli asboblarni bir necha xil sozlanishi haqida ham asosli fikrlarni bayon etgan.

Zamonaviy musiqa ilmida milliy cholg'u asboblari tarixi haqida gap ketganda, uni tarixiy davrlarga, bosqichlarga bo'lib o'rganish alohida o'rin tutadi.

1. **Antik davr.** Bu davr asosan O'rta Osiyoni arablar bosib olgunigacha bo'lgan davr hisoblanadi.
2. **Ikkinchi davr.** Uyg'onish davri – X asrdan mo'g'ul istilosigacha bo'lgan davr.
3. **Uchinchi davr.** Temuriylar va undan keyingi davr – XIV-XIX asrlargacha.
4. **To'rtinchi davr.** Sovetlar davri – XX asr
5. **Beshinchi davr.** Mustaqillik davri.

O'zbek musiqa san'atining ildizlari juda qadimiydir. Navro'z, Mehrjon, Sada kabi ommaviy bayramlar O'rta Osiyo xalqlarida qadimdan keng nishonlanib kelingan va ular, albatta, kuy qo'shiq, raqs hamda musiqiy o'yinlar ijro etish bilan bog'liq ravishda o'tkazilgan.

Ajdodlarimizning qadimiy Zardushtiylik diniy kitobi "Avesto" yozuvlarida xudolarga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlarda qo'shiqlar kuylangan, ularga cholg'u sozlari jo'r bo'lgan. Qadimiy manbalarda, ayniqsa, nay sozi, uning yoshi salkam 5 ming yil degan taxminlar ilgari suriladi. Samarqand viloyati, Urgut tumani, Mo'minobod qishlog'idan topilgan nay cholg'usi shundan darak beradi. Bu nay suyakdan nihoyatda mohirlik bilan

ishlangan bo'lib, u Samarqanddagi respublika madaniyati va san'ati muzeyida saqlanmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida ud sozi ham eng qadimiy sozlardan sanaladi. Bu cholg'uning rasmi ayniqsa, Xalchayonda topilgan haykalchalarda, uy-joylar peshtoqlaridagi naqsh va hoshiyalarda ifodalangan. Bu soz tarixi qadimiy Eron-Turon xalqlari manbalarida uchraydi va keyinchalik arablar orqali Yevropa xalqlari madaniyatiga kirib borgan.




Qadimgi Xorazm muhim madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan. Xorazm tarixiga oid arxeologik topilmalarda ko'plab udsumon, torli, puflab chalinadigan naysimon cholg'ular tasvirlari topilgan. Hozirgacha dunyoning turli hududlarida topilgan arfa cholg'usining beshtasi, ya'ni uchta burchakli va 2 ta yoysimon arfalar tasvirlari O'rta Osiyo xalqlariga tegishli ekanligi mutaxassislar tomonidan isbotlab berildi. Jumladan, eramizdan avvalgi IV-III asrlarga doir to'qqiz torli burchaksimon arfa Xorazimning "Qo'y qirilgan" qal'asida topilgan sopolga ishlangan.

Tuproq qal'a xarobalaridan topilgan olti va to'qqiz torli arfa chalayotgan ayollarning devorga ishlangan rasmi ham bu cholg'u sozining vatani O'rta Osiyo ekanligidan dalolat beradi. Soz chalishdagi o'zaro yaqinlikda turish hozirgi ansambl shakliga o'xshashligi o'sha davrlarda qo'shiqchilik madaniyatini ilk murakkab ko'rinishlari paydo bo'lganligini ham bildiradi. Saroy musiqachilari va qo'shiqchilarining o'z mehnat faoliyatida kasb sifatidagi turlari rivojlanadi.

Tarixda Sosoniylar hukmronligi deb nom olgan saltanat 400 yildan ortiq davom etib, bu davrga oid topilmalarda cholg'u asboblari turlari – ud, qo'shnog'ora, arfaning egik turi, do'mbra, likopcha va boshqa sozlar hisobiga boyiganligini ko'rish mumkin. VII asr oxirlariga kelib Turon saltanatidagi ichki ziddiyatlar kuchayib, mamlakat sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketadi. Turk hoqonligi zaiflashganidan foydalangan arab istilochilari VII asrning 2-yarmida (660-y.) O'rta Osiyoni zabt etadi.

Milliy cholg'u sozlarining yaratilishi va takomillashuvining ikkinchi davri uyg'onish davridan (IX-XI asrlar) mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda ilm-fan sohasida buyuk allomalar yashab ijod qilishadi. Taniqli olim M. Xayrullayevning yozishicha, bu davrda matematika ilmining bir qismi hisoblangan musiqa alohida yo'nalishda o'rganila boshlaydi. Bu davrda yaratilgan

musiqashunoslikka oid manbalarda musiqa sozlari torli, puflama va zarbli turlarga tasnif (klassifikatsiya) qilinadi. Keyinchalik Yevropa musiqashunoslari ham bu qoidaga amal qilgan holda tadqiqot ishlarini olib borishgan. O'rta Osiyo xalqlari orasida paydo bo'lgan ko'plab cholg'u sozlari keyinchalik Yevropa mamlakatlarida mahalliy xalq musiqasi xususiyatlariga moslashtirilgan, bu ko'proq torli, puflama cholg'ulariga xosdir.



Uyg'onish davri deb ataladigan IX-XI asrlarda Forobiy va Ibn Sino tomonidan yaratilgan musiqaga oid asarlar Sharqda musiqashunoslik ilmining muhim tarkibiy qismi sifatida cholg'ushunoslik faniga asos solganligini va ayni paytda bu fan Yevropada ancha kech payda bo'lganligini ta'kidlash joizdir.

O'rta Osiyo, xususan, Movarounnahrda yashovchi xalqlar, xususan, o'zbek xalqining tarixida eng muhim bosqich bo'lmish Amir Temur va temuriylar hukmronligi davri (XIV-XV) asrlarda madaniyat, san'at, ilm-fanning gullagan, keng rivojlangan bosqichi bo'ldi. Amir Temur o'zi egallagan o'lkalarda, chunonchi, Xuroson, Eron, Suriya, Kavkaz, Sharqiy O'rta Osiyodagi ko'plab san'atkorlarni Samarqandga to'plagan, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib bergan. Manbalarning guvohlik berishicha, o'sha davrlarda dabdabali saroy marosimlari musiqa va qo'shiqlar jo'rligida o'tkazilgan. Xonanda va sozandalar fors, arab, turk, mo'gul ohanglaridan na'munalar chalishib, qo'shiq aytar edilar. Shaharlarni taraqqiy etishi bilan o'ziga xos shahar madaniyati shakllana boshlaydi. Professional musiqachilar faoliyati yuzaga keladi.

Samarqandda mohir sozanda Sulton Ahmad nay sozida kuy chalganda murdaga jon kiradi deb ta'riflar ekanlar. Bu davrda dong taratgan sozandalardan yana biri Mavlono Boqiy Jarroh bo'lgan. U mavlono Kavkabiylar Buxoriyning shogirdi bo'lib, o'z iste'dodi bilan keng shuhrat qozongan. XVI asrda yashab o'tgan mashhur sozanda va bastakor Amir Ali Akbar Samarqandiydir. Bu davr musiqachilaridan yana biri Hojai Jafariy Samarqandiy qonuniydir. Temuriy hukmdori Abu Said uning san'atini juda qadrlagan.

Fors-tojik adabiyotining mashhur namoyondasi Abdurahmon Jomiy musiqiy pardalarning tinglovchilar ruhiyatiga ta'siri haqida so'z yuritib, ularni 4 toifaga ajratdi:

- 1) Shijoat va jasurlik uyg'otuvchi ohang.
- 2) Xursandchilik va quvonch uyg'otuvchi ohang.
- 3) Qayg'u va mung uyg'otuvchi ohang.
- 4) G'am va ma'yuslik, aralash shodlik va zavq uyg'otuvchi ohanglar.

O'tmishda maqomlar dastalar deb ham yuritilgan degan gaplar bor. Chunki, maqom kuy va qo'shiqlari o'z o'rnida doira usllari bilan ajralib turadi. Musiqa san'ati xonliklar (XVI asr 2-yarmidan markazlashgan Temuriylar davlati o'rnida 3 ta xonlik vujudga keladi) davrida ham temuriylarning Hirot va Samarqanddagi saroy an'analariga ko'ra rivojlanganligi ham haqiqatdir.

Shundan keyingi davrlarda O'rta Osiyoning Turkiya, Afg'oniston, Eron, Xitoy, Rossiya, Qozon xonligi bilan madaniy aloqalari kengaydi.

XVI asrda Buxoro madaniy hayotida Najmiddin Kavkabiylar Buxoriyning ijodi alohida ahamiyat kasb etdi. Kavkabiylar maqomlarining 12 turi, kasbiy (professional) musiqa, xalq og'zaki ijodiyoti xususida qator tadqiqotlar olib bordi. Uning "Risolayi musiqiy" asari o'sha davrda musiqa ahli uchun asosiy ilmiy amaliy qo'llanma bo'ldi. XVII asrda bu ustozlar an'analarini Darveshali Changiy davom ettirdi.

XIX asrda Xorazm, Qo'qon va Toshkentda ham qator taniqli mohir sozandalar, bastakor va qo'shiqchi – hofizlar ijod maydoniga kirib keldilar. Bu davrda O'rta Osiyo xalq musiqa sozlarida ijrochilik madaniyati keng ommalashdi. Xivada Muhammad Rahimxon II davlat boshlig'i (xon) bo'lishi bilan birga iste'dodli shoir, musiqashunos, san'at homiysi edi. U soz chalishi bilan birga Xorazm olti maqomini takomillashtirishga rahbarlik qildi. Komil Xorazmiyni nota yozuvini yaratishga undadi.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingach, mustamlakachi ma'muriyat siyosiy maqsadlarni ko'zlab o'lkada rus madaniyatini yoya boshladi. Ayni paytda o'zbek xalq musiqa sozlari ijrochiligida yangi shakllar paydo bo'la boshladi. O'lkaga Yevropa musiqa shakllari (opera, vokal, xor, ariya, duet ansambl) bilan birga Yevropada shakllangan cholg'u sozlari (dastlabki davrda asosan puflab chalinadigan) kirib kela boshladi. O'zbek milliy sozlarini nota yozuviga moslashtirish (yarim tonlikda) zarurati yuzaga keldi.

Bunda hozirgi mavjud nota yozuvini o'rganishning maorif sistemasi tashkil topganligi va ularning turli joylarda musiqa maktablari, musiqa bilim yurtlari va

hatto oliy o'quv yurtlari, jumladan, Toshkent Davlat konservatoriyasini tashkil topishi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu sababli Aratinskiy XVI asr oxirlarida yaratgan, hozirgi nota yozuvi (sistemi) ni oradan shuncha vaqt o'tib XX asrgacha o'rganmagan bo'lar edik. Bundan tashqari o'zbek milliy cholg'ularimizning orkestrini yaratish uchun Yevropa cholg'u asboblari andozasida yangi-yangi nusxalari yaratildi. Masalan: rubob prima, rubob sonrano, dutor alt, dutor prima, dutor sekunda, dutor bas, dutor kontrabas va hokazo. Endilikda milliy cholg'u asboblarmizdan orkestr tuzish va unda turli millatlar, qardosh xalqlar musiqa asarlarini ko'p ovozli variantlarida ijro etish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu davr o'zbek musiqa san'atining, shu yo'nalishda o'zbek cholg'ulari shakllanishida ham tub burilishli davr bo'ldi. Hozirgi paytda barcha cholg'ularimiz nota yozuviga moslashtirilgan va musiqiy ta'limning barcha turlarida o'qitish, o'rganilishi yo'lga qo'yilgan.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, o'zbek milliy qo'shiqchiligi o'ziga xos ohang, nolalar, qochirimlarga boy bo'lgani kabi, cholg'u sozlarimiz ijrosida ham melizmlar juda muhim o'rin tutadi va uning milliy xususiyatlarini ifoda etadi. Turli qochirim, sayqal, nola, molish, kashish, forshlag, tremolo, trel, mordent, shtrixlarni ijro etish milliy cholg'ularda o'ziga xoslikni talab etadi. Rekonstruksiya qilinib, yangi variantlari yaratilgan asboblarni ko'pida bunday imkoniyatlar yo'q. Masalan, prima rubobida qochirim va farshlagni amalga oshirish mumkin, lekin qolgan musiqiy bezaklarni ijro etib bo'lmaydi. Chunki, u mediator bilan ijro etiladi. Yoki dutor bas, dutor kontrabas cholg'ularida dutorga xos shtrixlarni qo'llab bo'lmaydi, chunki, ular mediator bilan ijro etiladi (barmoqlar bilan emas). Hozirgi kunda musiqa cholg'u asboblarni yasash, sozlash, takomillashtirish, yangi cholg'ularini yaratishga mo'ljallangan "laboratoriya" (ustaxona) larda ko'plab cholg'u sozlari, ayrim cholg'ularining yangi nusxalari yaratilmoqda. Ushbu laboratoriyalarga cholg'u sozlarini yaxshi biladigan mohir ustalar, cholg'uchi sozandalar hamkorligida ijod qilishlari yo'lga qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Iqtisod, 2008.
2. Abdullayev K. Nodir topilma., O'zbekiston madaniyati, 23 oktyabr., 1973
3. Визго Т.С. Судба Афрасиябской лютни., Sharq musiqasi Toshkent. 1980
4. Визго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии (Исторические очерки). – Москва, 1980.

2. O'zbek xalq cholg'u asboblarning turlari

Reja:

1. XX asrda o'zbek xalq cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar.
2. O'zbek xalq cholg'u sozlari turlari tasnifi.
3. O'zbek xalq cholg'ularini tempiratsiya soziga keltirilishi, turdosh cholg'ularni vujudga kelishi.
4. Xulosa.

Tayanch iboralar: *Dutorlar, ruboblar, changlar, g'ijjaklar (prima, alt, bas, kontrabas)*

XX asr boshlarida (1933-yil) B.M. Belyayev o'zining "O'zbek cholg'u asboblari" kitobida o'zbek xalq cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish muammosini ko'tarib chiqdi. Universal nota yozish vositasi sifatida, Yevropa nota yozuvi asosida o'zbek musiqa asboblarning tuzulishini aniqlashni taklif etdi. Natijada, bu borada zamonaviy ijrochilik talablariga javob beradigan cholg'u turlari paydo bo'la boshladi. Chang, g'ijjak cholg'ulariga qo'shimcha torlar qo'yildi. Usta Usmon Zufarov ko'plab dator, tanbur, g'ijjaklarni turdosh turlarini yaratdi.

Matyusuf Xarratov changni takomillashtirish ustida uzoq ish olib bordi. Natijada changning yuqori registrini qo'shimcha torlar va xarraklar hisobiga kengaytirdi. Usta Usmon Zufarov va Yunus Rajabiy hamkorligida dator bas, g'ijjak bas, g'ijjak al't namunalari yaratildi va orkestr tarkibiga kiritildi. Shu davrda musiqa asboblari yasash uchun maxsus ustaxonalar ochila boshlandi. Namanganda usto Ro'zimat Isaboyev, Buxoroda usta Hoji ota, usta Tohirjon Davlatov, usta Najmiddin Nasriddinovlar, Toshkentda qo'shnay, surnay asbobini taniqli sozandalar Xayrulla Ubaydullayev, usta Qayum surnaychilar takomillashtirdilar.

A.I.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh ustalar birlashib, Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida o'quv cholg'u orkestr sinfida yangi cholg'ularni sinab ko'rishadi.

1940-yillarda xalq cholg'ularining xromatik yarim tovushqatoriga ega 12 bosqichli turlari ancha ko'paydi. 50-yillarga kelib sinov tajribaxonasida Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Qoraqalpog'iston xalq musiqa cholg'ulari ham rekonstruksiya qilindi va takomillashtirildi.

Endi o'zbek xalq cholg'u turlari tavsifiga to'xtalib o'tamiz.

Doira

Ilmiy tadqiqotlar dastlabki cholg'u asboblari paydo bo'lishini eramizdan avvalgi XII ming yillikka bog'lashadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli

cholg'ular paydo bo'lgan. Bular nog'ora, chindovul, childirma, dovul va doiralardir.

Doira iborasi ba'zan "dapp", "childirma", "chirmanda" deb yuritiladi, ijrochini esa dappchi-childirmachi, Buxoroda doiradast, Farg'onada chirmandachi, Samarqandda doirachi deb yuritiladi.



Doira

Doira oddiy aylanma shaklda, diametri taxminan 400 mm bo'lgan, gardishi uzum zangidan qilingan, doira gardishiga buzoq yoki baliq, ba'zan toy terisidan qoplanadi. Gardishga qirqqa yaqin xalqachalar taqiladi. Ular shing'iroq, shilshila deb yuritilib ijrochilikda qo'shimcha sado beradi. Doirada 2 ta asosiy tovush bor. Biri past "bum", ikkinchisi baland "bak", ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush "bakko" (tak-tak) yoki (bak-bak) "takka" deb yuritiladi. Agar taktlar o'rtasida pauza kelsa "ist" so'zi qo'llanilgan. Baka - bum - bak – ist – baka - bak. 30-yillardan so'ng doira usullari, ya'ni "bum" chiziq ostiga, "bak" esa chiziq ustiga yozilib ijro etiladigan bo'ldi.

Nog'ora

Nog'ora sopoldan yasalgan bo'lib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Ko'pincha ikki nog'ora birga chalinadi, ikkalasi bir-biridan kvarta soziga farq qilishi lozim. Nog'ora aniq balandlikka ega emas, baland tovush "bak", past "bum", asosan ikkita ingichka cho'p bilan urib chalinadi. Nota yozuvida "bum" chiziq tagida, bak chiziq ustida yoziladi. Surnay chalganda usulni nog'ora bilan saqlaydilar. Nog'ora usullaridan biri "Shodyona" usulidir.



Nog'ora

Safoyil: Xitoy, uyg'ur xalqlari madaniyatida keng tarqalgan. U ikki bo'lak qattiq yog'och kaltakchasidan iborat bo'lib, bu kaltakcha mayda temir xalqachalarga o'rnashtiriladi.

Safoyil chalishda silkitib, yelkaga urib, shovqunli tovushlar chiqariladi. Safoyil ikki bo'lak qattiq yog'och kaltakchasidan iborat bo'lib, bu kaltakcha mayda temir halqachalar taqilgan katta temir xalqachaga o'rnashtiriladi. Ikkita kaltakchasini uzunligi 400 mm ni tashkil etadi. Safoyil cholg'uchisi yelkaga urib va havoda tebratib har xil kerakli usullarni chiqaradi.

"Soqiynoma" va "Qashqarcha" kuylarida ham safoyil cholg'usi ishlatiladi, bu cholg'u ritm berib, kuchli hissani tovush bilan yetkazib beradi.



Safoyil

Qayroq

Qayroq - O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida keng tarqalgan asosan ayollar ijrosida qo'llanilgan. Raqslarda ishlatiladigan qayroq cholg'usi yapaloq, tekis silliqlangan to'rtta toshdan iborat bo'ladi. Ijrochi har bir qo'lga ikkitadan qayroqni ushlab silkitib har xil usullarni hosil qiladi. Qayroqda biror kuy, raqs yoki ashula usulini (ritmini) ijro etish paytida, ijrochi har xil milizm ya'ni milliy bezaklardan foydalanadi.

Odatda qayroqni raqs tushuvchi o'zi chaladi. Raqqos yoki raqqosa qayroqni bir-biriga urilishidan chiqqan ritmik tovushni o'z raqsiga jo'r qiladi. Qayroq cholg'usida ijro etiladigan kuylardan: «Qayroq o'yini», «Norim-norim», «Xorazm lazgisi» va shunga o'xshash raqsona kuy qo'shiqlardir.



Qayroq

Chang

Chang ko'hna va qadimiy cholg'ulardan. Forobiy asarlarida o'sha davrdagi changning 15 ta tori bo'lganligi aytiladi. XVII asrda yashab ijod qilgan musiqashunos olim Darvesh Ali Changgiy bu sozni mukammal ijrochisi bo'lgan.

Tarixda chang cholg'usining juda ko'plab namoyandalari bo'lgan. Chang cholg'usidan o'zbek, tojik, uyg'ur va rus xalqlari ham keng foydalandilar. Ruslar uni "Simbal" deb atashadi. U tut, yong'oq, o'rik yog'ochlaridan yasaladi. Changning quloqlari 76 ta bo'lib, u chang korpusining o'ng tomoniga o'rnatiladi, pardalari xromatik yarim tondan iborat.

Changni chalish uchun ishlatiladigan cho'p g'arovdan yoki qamishdan ishlanib, uchiga rezina o'rnatiladi. Chang ansambl va orkestrlarda eng asosiy boshlovchi rolini o'ynaydi. U yakkavozlikda ham mashhur bo'lib, yuqori texnikaviy asarlarni ijro etish uchun qulaydir.



Chang

Ud

Ud juda qadimiy cholg'u sozlaridan. Ud arabcha so'z bo'lib, bayram, to'y-tomoshani, xursandchilikni ifodolovchi "iyd" iborasining sinonimidir. Udning dastlabki nomi "Barbad" bo'lganligi ham ayrim manbalarda ko'rsatiladi. Barbad ikki so'zdan iborat bo'lib, bar-qomat, bad-o'rdak ma'nolarida ishlatiladi. Uning eng takomillashgan shakliga ud deyiladi.

Ud asbobi kosa, dasta, bosh qismdan tashkil topgan. Kosasi bir-biriga yopishtirilgan bir necha qovurg'asimon taxtachadan iborat. Ustiga yog'ochdan tayyorlangan qopqoq zich qilib biriktiriladi. Qopqoqda uchta rezonator-ovoz tebranib chiqadigan teshik bo'lib, ustiga torlar tayanadigan xarrak zich qilib tutashtiriladi.

Dasta-kosaga mahkam biriktiriladi, unga parda bog'lanmaydi. U g'ijjak dastasiga o'xshab sof, tekis bo'ladi. Udning bosh qismi, torlarni mahkamlash va tortish uchun mo'ljallangan bo'lib, unga 11 ta yog'och (beshtasi o'ng va oltitasi chap tomonda) o'rnatilgan. Udning bosh qismi bilan dasta tutashgan yerda

shayton xarrak joylashgan. U ochiq torlarni tayanchi hisoblanadi. Udning ishchi qismi ana shu yerdan boshlanadi.

Udning umumiy ijrochilikdagi imkoniyati keng bo'lishiga qaramasdan, bizning an'anaviy ijrochilikdagi uslubimizga har bir pardasidan kuy jumlasini boshlayverish to'g'ri kelmasligi, amaliy o'zlashtirishimizda o'z ifodasini topdi. Ana shu imkoniyatlarni va ko'pgina maqom kuylarimizning diapozon jihatidan kengligini inobatga olgan holda, ud soziga biroz o'zgartirish kiritildi.

Ud torlarining yuqoridan birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi juft torlar oralig'idagi sozini saqlagan holda, to'rtinchi bilan beshinchi tor oralig'ini sof kvartaga, beshinchi bilan oltinchi tor oralig'ini esa katta sekundaga moslab sozladik. Misol uchun **mi**, **fa#**, **si**, **mi**, **lya** va **re**. Kuylarni notaga olishda **sol** kaliti (yoki skripka kalitida) yozilishida, yosh mutaxassis sozandalarga bir oz qulaylik yaratilishi mumkin.



Ud

Qadimiy Udlar ikki torli bo'lib, "zir" va "bam" deb nomlanadi. Bam pastdagi, zir yuqoridagi ingichka tor. Keyinchalik uch, to'rt torli bo'lgan, Forobiy unga beshinchi torni o'rnatgan.

Rubob

Rubob - O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyatida keng qo'llaniladi. Tut, chinor, o'rik yog'ochlaridan ishlanib, kuchli jarangdor tovush beradi. Qadimgi rubob pardalari ichakdan bo'lgan. 1936-yildan boshlab po'lat simda (5-simi ichakdan) chalinadi. Rubob asbobi bir necha turlardan iborat. Bular rubob prima, rubob sekunda, rubob tenor deb nomlanadi



Rubob

Rubobning kosasiga asosan baliq terisi ba'zi hollarda buzoqning yurak terisi ham qoplanadi. Rubob notasi yozilishidan ko'ra bir oktava past sozlanadi (ovoz beradi). Rubob besh tordan iborat. Uning birinchi tori juft bo'lib, fortepianoning yoki changning birinchi oktavadagi **lya** pardasiga va ikkinchi tori ham juft bo'lib, **mi** pardasiga, oxirgi ichakdan eshilgan yo'g'on tori bitta bo'lib, u chalinadigan kuyining mohiyatiga qarab, **si** yoki **lya** pardasiga sozlanadi.



Afg'on rubobi - Hindiston, Pokiston, Eron, Afg'oniston, O'zbekiston, Tojikistonda keng tarqalgan. Nomlanishiga ko'ra Tojik rubobi, Buxoro rubobi, Badaxshon rubobi ham deyiladi. Ushbu cholg'uning usti teri bilan qoplangan, katta chuqur o'yma kosasining toraytirilgan, yon tomonlaridan yuqori qismiga yupqa qopqoq yelimlangandir. Odatda beshta chalinadigan asosiy pay tor, hamda yon quloq (go'shak)larga tortiladigan 10-11 ta aks-sado beruvchi sim

torlarga ega bo'lib, asosiy torlar o'zaro kvartaga sozlanadi. Aks-sado beruvchi simlar esa pog'onama-pog'ona ko'tariluvchi sekundalarni tashkil etadi. Torlari simdan va ichakdan bo'ladi.

Afg'on rubobining qayta ishlangan turi rubob tenor deb nomlanadi. Unda beshta tor bo'lib, hammasi ichakdan. Sozi kvarta intervali oralig'ida. 5-tor katta oktavadagi **si**, **lya** tovushiga, 4- va 3- juft torlar kichik oktavadagi **mi** tovushiga (unison), 2- va 1- torlar kichik oktavadagi **lya** tovushiga (unison) sozlanadi. Umumiy ovoz hajmi katta oktavadagi **si** tovushidan ikkinchi oktavadagi **do**, **lya** tovushiga qadar. Notalar eshitilishiga nisbatan oktava yuqorida skripka kalitida yoziladi.



Afg'on rubobi

Tanbur

Tanbur - forsha so'zdan olingan bo'lib, "tan"-yurak, dil, "bur"-kesmoq, qitiqlamoq, larzaga solmoq demakdir. Kosasi tut yog'ochdan, dastasi asosan o'rik, yong'oqdan yo'nib yasaladi. Dastasiga ichak pardalar bog'lanadi. Torlari misdan bo'lib, "**noxun**" deb ataluvchi metaldan ishlangan moslama yordamida chalinadi.

Tanburning kosasi tut yog'ochidan, dastasi esa, asosan o'rik, yong'oq va boshqa yog'ochlardan yo'nilib yasaladi. Dastasiga esa ichak pardalar

bog'lanadi. Ichak pardalar diatonik tovushqatorda joylashgan bo'lib, ba'zilarida esa xas pardalar joylashgan bo'ladi.



Tanbur

Dutor

Dutor: Tojikcha so'z bo'lib, ikki tor degan ma'noni bildiradi. Tojik, uyg'ur, turkman, qaraqalpoq xalqlarining eng sevimli cholg'usi. Kvarta, kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Kichik oktava lya, mi notalariga sozlanadi.

Bunga o'xshash cholg'ularni qozoqlarda "do'mbra", qirg'izlarda "qo'biz" deb ataladi. Dastasiga ichak yoki ipakdan eshilgan pardalar bog'langan diatonik tovushqatordan iborat dutorlar xalq dutorlari deb aytiladi. Dasta va kosa qismlardan iborat, ularni birlashtiruvchi qismi "bo'g'iz" deb ataladi. Kosasi o'yma va qoburg'alarning birlashganidan yasalishi mumkin. Uning dutor prima, dutor sekunda, dutor bas, dutor kontrabas turlari hozirda musiqa amaliyotida qo'llaniladi.



Dutor

Dutor kvarta, kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Bizda qo'llanilayotgan dutor-***alt*** deb ataladi.

Qonun

Qonun: Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlarida tarqalgan. Forobiy tomonidan ixtiro qilingani haqida ma'lumotlar bor. Qonun ko'p torli, yassi sathli, trapetsiya ko'rinishda, chinor, yong'oq, o'rik daraxtlari yog'ochidan tayyorlanadi. Qopqog'i (deka) hayvon yoki baliq terisi bilan qoplanadi. Qopqoq

ustida turli gul shaklidagi uchta tovushxonasi mavjud. Ustki qopqog'i oralig'ida 24-25 ta (uchtalik), ichak torlari (72-75 ta) joylashgan. Qonunga o'xshash cholg'ular: ruslarda gusli, latishlarda kuokle, estonlarda kannel, ozarbayjonlarda chang, ukrainlarda bandura, g'arbiy Yevropada simbala deb yuritiladi.

Qonun

Qonun noxun va mediator bilan ijro etiladi. O'ng va chap qo'l ko'rsatgich barmoqlariga, ba'zida boshqa barmoqlarga ham noxun taqilib, barmoq va noxun orasiga mediator kiydirib ijro etiladi. Mediator 30-40 mm uzunlikda va 1,5-2 mm qalinlikda, eni esa 0,5-0,7 mm bo'ladi. Noxun esa bo'yi 25-30 mm, eni 10-15 mm bo'lib, sozandaning qo'lga osongina moslashtirish mumkin bo'lgan holda metaldan yasaladi.

G'ijjaklar

G'ijjakning dastasi dumaloq emas, aksincha, skripka dastasidek yassi qilib ishlanadi. Oyoqchasi stulga o'tirib chalish uchun qulaylashtirilgan. Orkestrda chalish uchun g'ijjakning katta-kichik (g'ijjak alt, g'ijjak bas, g'ijjak kontra bas) turlari mavjud. G'ijjak asosan tut va yong'oq daraxtlari yog'ochidan ishlanib, uning kosasiga baliq yoki buzoq yuragining terisi qoplanadi. G'ijjak cholg'usi orkestrlarda eng asosiy, yetakchi vazifani bajaradi, yakkanavozlikda mashhurdir.

Uning nota matni skripka kalitida eshitilishicha yoziladi.



G'ijjaklar

G'ijjak: Kosasi qovoqdan, kokas yang'og'idan yasaliib, ichi kovak qilib o'yilgan. Kosasi ustiga baliq terishi va pufak qoplangan. Kosasining pastki qismiga tayoqcha o'rnatilib, ijrochi uni tizzaga qo'yib, o'tirgan hamda chalgan. Dastasi dumaloq bo'lib, kosaga yaqinlashib borgan sari kengaytirib ishlangan. Hozirda asosan 4 ta tori joriy qilingan. 4-tor kichik oktava sol, 3-tor 1-oktava re, 2-tor 1-oktava lya ga va 1-tor 2-oktava mi ga sozlanadi. Turlari – g'ijjak al't, g'ijjak bas, g'ijjak kontrabas.

Qo'biz

Qo'biz: Torli kamanchali cholg'u turiga kiradi. Uning tori 2 ta bo'lib, har bir tori bir to'plam qildan iboratdir (ot quyrug'idan olingan). Qozog'istonda, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qoraqalpoq xalqlarida keng tarqalgan.



Qo'biz

Qobiz-qovuz torli-kamonchali musiqa cholg'usi hisoblanadi. Qobiz cholg'usini paydo bo'lishi haqida turli afsonalar mavjud. Professor Fitratning yozishicha, "...qobiz eng eski turk cholg'usidir. Qobuzning tori ikkita bo'ladi. Har bir tori bir to'plam qildan iboratdir, ot quyruq'idan olinadi. Birinchi torning qillari ikkinchi tordan ozdir. Turklarning ibtidoi zamon shoirlari bo'lgan baxshilar-uzonlarning cholg'ulari qobuz yerd.

Mahmud Qoshg'ariyning «*Devon ul-lug'atit turk*» kabi eski turk lug'atida «*Qubiz*», "*Qubizlamoq*" kabi so'zlar bo'lganidek, Navoiy, Lutfiy Mirhaydar Manjzub kabi ko'p chig'atoy shoirlarining asarlarida ham "*Qubiz*" ismiga uchramoq mumkin¹.

Sato

Sato: Tashqi ko'rinishidan tanburga o'xshaydi. Kosasi tut, yong'oq-o'rikdan o'yib yasaladi. Uni noxun bilan chalsa ham bo'ladi. Asosiy torlari 3 ta, ba'zan 4 ta bo'lib, bu torlar metall misdan iborat bo'ladi.

Sato cholg'usining ovozi bir oz fig'onli, dardlidir. Ijro etish paytida, sato cholg'usidan chiqqan tovush, insonni xayol og'ushiga olib ketadi. Taralayotgan kuy eshituvchiga shunday ta'sir qiladiki, hatto eshituvchi o'z gavda qismini

¹ Fitrat A. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" O'zbekiston. Respublikasi, FA Toshkent., «FAN» nashriyoti., 1993., 34 b.

tebranayotganini ba'zan sezmay ham qoladi. O'zbekiston xalq artisti Turg'un Alimatovning chalgan kuylari bunga misol bo'la oladi. Turg'un Alimatov mohir usta tanburchi, dutorchi va sato asbobini dilkash, joziba bilan ijro etadigan sozandalarniig eng yetakchisidir.



Sato

Sato dastasining uzunligi tanbur cholg'usidek uzun bo'lib, yo'g'on ichak tordan uch o'ramda bog'langan. Dastasiga hamda kosaxonasi qopqog'iga yopishtirilgan qo'shimcha xas pardalar bor. Xaspardalar yog'och qalamchalardan iborat bo'lib, tanbur va sato asboblari kosasining qopqog'iga yopishtiriladi. Ovoz hajmi ikki yarim oktavadan kengroq doirada diatonik tovushqatorni hosil qiladi.

Nay

Nay: Tuzulishiga ko'ra barmoqlar bilan berkitilgan 6 teshikcha, diatonik tovushqatorga ega bo'lib, hajmi 1-oktava lyadan, 4-oktava re gacha. Notalar skripka kalitiga yoziladi.

Nay musiqa asbobi yakka cholg'u, ansambl va orkestrlarda chalinadi. Ovoz hajmi kengligidan, xalq kuylarida, maqomlarda, ansamblda ko'proq yetakchi vazifasini bajaradi. Tuzilishiga ko'ra barmoqlar bilan berkitiladigan olti teshikcha, diatonik tovushqatorga ega bo'lib, umumiy ovoz hajmi birinchi oktava **lya** dan to'rtinchi oktava **re** gacha. Notalar skripka kalitida yoziladi. Barmoqlar bilan teshikchalarni to'la yoki yarim berkitish, yarim yoki butun tonlikni tashkil etadi. Turlicha puflash yo'li bilan esa, baland-past tovushlar chiqaziladi. Nayni puflaydigan teshigi va barmoqlar bilan yopadigan birinchi teshikcha o'rtasida yana bir teshikcha bo'lib, bunga yupqa qog'oz yopishtiriladi (bu asosan Xitoyda qo'llaniladi). Bu uslub tovushni to'lqinlantirib chiqarishga yordam beradi. Nayning ikkinchi uchida doimiy ochiq turadigan to'rtta teshikcha (ikkisi ikki yonda va qolgan ikkisi ort tomonda) ayrim pardalardagi tovushlarni yumshatib berish uchun xizmat qiladi.



Nay

Nayning umumiy uzunligi 500-600 mm bo'lib, yog'ochdan, g'arovdan, qamish va misdan yasaladi. Shunga ko'ra «**Yog'och nay**», «**Mis nay**», «**G'arov nay**» deb ataladi. So'ngi yillarda nayni kichraytirilib ishlangan turi qo'llanila boshladikim, bu kichik nay «**Nay pikkola**» deb ataladi. Nayning ovozi juda yoqimli. Bu asbob ikki holatda, ya'ni o'tirib va tik turgan holatda ijro etiladi. Nay fortepianoning yoki chang asbobining **lya** notasiga sozlanadi.

Nay cholg'usi nafaqat O'zbekiston va Tojikistonda, balki Buryatiya, Mangoliya Respublikasi, Xitoyda ham keng tarqalgan. Bu cholg'u turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Masalan: O'zbekiston va Tojikistonda **nay**, Buryat va Mangoliyada **limba**, Xitoyda **li** deb yuritiladi.

Surnay

Surnay: Uning ham chap va o'ng qo'l barmoqlari bilan yopiladigan 6 ta teshikchasi bor. 7-teshik esa pastki tomonda bo'lib, chap qo'lning bosh barmog'i bilan bekitiladi. Hajmi kichik oktava *lya* dan 2-oktava *mi* ga qadar. Ovozi baland bo'lib, asosan to'y-tomoshlarda ijro etib kelinadi.

Surnay o'zbek va tojik xalqlari o'rtasida keng tarqalgan qadimiy puflama yog'och cholg'u asbobi. Unda ham chap va o'ng qo'l barmoqlari bilan yopiladigan oltita teshikchasi bor. Yettinchi teshik esa, pastki tomonda bo'lib, buni chap qo'lning bosh barmog'i bilan berkitiladi. Ovoz hajmi kichik oktava *lya* dan ikkinchi oktavadagi *mi* ga qadar cho'zilgan. Notalar eshitilganicha skripka kalitida yoziladi. Surnay ovozi baland bo'lganligi uchun ochiq havoda, turli tantanalarda (mikrafonsiz) chalinadi. Surnayni yasashda o'rik daraxtidan foydalaniladi va qamishdan tilchaga o'xshash maxsus puflagich o'rnatiladi.



Surnay

Ayni paytda yakka cholg'u asbobi-surnayning imkoniyatlarini hisobga olib, maxsus ijrochilik dasturlari ("Surnay Irog'I", "Surnay Dugohi", "Surnay Qalandariy", "Surnay Navosi", "Shodiyona", "Miskin") kabi o'zbek xalq kuylari anchagina o'rin olgan.

Qo'shnay

Qo'shnay ikki qamish naychadan iborat bo'lib, ularga maxsus tilcha o'rnatiladi. Chalishda ikkita naycha bir xil puflanadi, har ikkala naychada joylashgan 7 ta teshikchani tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi 1-oktava *rye*-dan 2-oktava *sol* gacha.



Qo'shnay

Karnay

Karnay: Tuzilishi ikki, uch bo'lakdan iborat bo'ladi. Uzunligi 2 metrdan ortiq, puflab chalinadigan qismi oxirida mayda teshikcha bor. Karnay cholg'u ijrosida tovushlar sekunda intervaliga o'xshaydi, asosiy tovushdan yuqori sof kvinta yoki kichik septima intervali chalinadi. Asosan, bayramlar, to'y-tomosholarda doira, surnay jo'rligida chalinadi.

Karnay ijrosi asosan bayramlarda, tantanali marosimlar, sayillarda, to'y-hashamlarda, surnay va nog'ora ba'zan esa doyra jo'rligida chalinadi.



Karnay

Karnayning ovozi juda baland bo'ladi, shu sababli bo'lsa kerak, «*Navro'z*» bayramlari va har xil mavsumiy sayillarda xalqni yig'ilishlarga chorlaydi. Karnay musiqa asbobida kuy ijro etadigan sozanda «*Karnaychi*» deb yuritiladi.

Bo'lamon

Bo'lamon balabon, bolaman-qadimiy o'zbek halq cholg'u asboblaridan hisoblanadi. O'rta Osiyoning qadimiy Xorazm vohasida ilk bor paydo bo'lgan degan taxminlar ham bor. Chunki uning ko'proq ijrochilari, Xorazm xalqining aholisi va ularning musiqa ijrochilaridir.



Bo'lamon

Bo'lamon cholg'u asbobi ham odatda tut yoki o'rik daraxtining yog'ochidan yasaladi. Uni boshdan-oxiriga qadar parmalab ishlab chiqadilar. Shakli surnayga o'xshash, lekin undan biroz kichikroq, nomi ham shundan kelib chiqqan bo'lsa ajab emas. Bolaman-ya'ni surnayning bolasiman degan ma'noni ham anglatadi. Bo'lamonning uzunligi 300 mm bo'lib, yuqori qismiga o'rnatilgan (tili) qamishdan yasali, tayyorlanib P shaklida qirqiladi. Bo'lamonda sakkizta teshik mavjud, uning yettitasi ustki va biri orqa tomonida joylashgan bo'ladi. Orqa tomondagi teshik yuqorida bo'lib, chap qo'lning bosh barmog'i bilan berkitiladi. Tovush qatori diatonik bo'lib, kichik oktavadagi **re**, **re bemol** dan boshlab uch oktavagacha yaqinlashib boradi.

Bo'lamonda yakka navoz ijro etish mumkin, shuningdek, ansambl va orkestrlarda ham chalinadi. Ikkinchi tarafdin balabon cholg'usi arman, gruzin, Dog'iston xalq musiqa cholg'uchiligida ham ijro etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarov. I. Musiqa lug'ati. – Toshkent: San'at , 1997.
2. Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана ., Москва, 1933
3. Визго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии (Исторические очерки). – Москва, 1980.
4. Odilov A.I. O'zbek xalq cholg'u asboblari tarixi. – Samarqand: SamDU, 2010.
5. Petrosyans A.I. Cholg'ushunoslik. – Toshkent: San'at, 1990.
6. Qo'chqorov G'. O'zbek milliy cholg'ularini o'rganaylik. – Toshkent: Musiqa, 2002.

3. O'zbek xalq cholg'ularining ta'lim jarayonida qo'llanilishining maqsad va mohiyati

Reja:

1. Musiqa san'atining ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'rni.
2. Cholg'u ijrochiligini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbqiq etishning maqsad va vazifalari.
3. Musiqa ta'limida o'quvchilarni milliy cholg'ular bilan tanishtirish va ijrochilikka o'rgatish metodlari.

Tayanch iboralar: *Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Buxoriy, Temiziy, Farg'oniy, Motrudiy, Ahmad Yassaviy, Yevropa kompozitori, Betxoven va boshq.*

Yoshlar tarbiyasi davrimizning dolzarb vazifasi ekanligi xususida biz yuqorida aytib o'tdik. Shu sababli tarbiya masalasida musiqiy tarbiya sohasiga kengroq to'xtalmoq lozim. Bizga ma'lumki, musiqa tarbiyasi bevosita estetik tarbiya sirasiga kiradi. Tarbiyaning aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, vatanparvarlik, ekologik kabi ko'pgina turlari mavjud. Musiqiy tarbiyasiz tarbiyaning bu turlarini ham to'laonli amalga oshirib bo'lmaydi. Qo'shiqlarimizda ilm olishga rag'bat, axloq-odob, vatanparvarlik ruhi va boshqa insoniy xususiyatlar aks etib turmas ekan, bu tarbiyalarni quruq so'zlar bilan amalga oshirish murakkab masaladir.

Modomiki, shunday ekan, musiqiy tarbiyaning asosiy turlaridan biri hisoblangan cholg'u ijrochiligi ham barcha tarbiya turlariga o'z-o'zidan bog'liq. Yoshlarning milliy cholg'ularimizga qiziqishi, bu milliylikimizga qiziqishi demakdir. Yosh avlodni milliy musiqa san'atimizning u yoki bu turiga qiziqishini uyg'otish asosan musiqa murabbiylari va o'qituvchilarning bilim darajasi va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Bundan tashqari yosh avlod asosiy tarbiyani oilada oladi, demak, bu ota-onalarimizning musiqiy dunyoqarashiga, qolaversa, radio-televideniya va boshqa ommaviy axborot vositalari faoliyatiga, bayram tadbirlari, to'y-marosimlari va boshqa omillarning sifat darajasiga bog'liq ekanligi hammaga ravshan bo'lishi kerak.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o'zida axloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish ko'zda tutiladi. Tarbiyaviy vazifalar orasida bolalarda estetik did va ehtiyojlarini shakllantirish katta rol o'ynaydi. Hozirga qadar estetik tarbiyaning mazmuni hamda vazifalari turlicha talqin qilib kelingan. Ko'pchilik olimlar va tarbiyachi amaliyotchilar estetik tarbiyaga badiiy idrok, did va ehtiyojlarni tarkib toptirish vositalari, shakllari hamda usullarning tizimi sifatida qarab kelganlar, bu esa estetik tarbiyaning shaxsda faqat badiiy jihatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bir tomonlama mazmunini ifodalaydi.

Bunday tushunish esa, ko'ngilsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Ya'ni, bu so'zning tor ma'nosida "estetik" boshqacha qilib aytganda badiiy shakllarini yaxshi biladigan, tashqi go'zallikni xolis idrok etadigan, lekin ma'naviy jihatdan qashshoq, hayotdagi xatti-harakatlardagi hamda san'at asarlarining mazmunidagi go'zallik va xunuklikni ko'ra olmaydigan hamda anglamaydigan kishilarni yetishtirishimiz mumkin. Estetikani chinakam to'g'ri tushunadigan kishilarni kamol toptirish uchun estetik tarbiyaga boshqacha yondashish zarur. Uning mazmuni va vazifalarini ifodalashda estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning muhim qismi ekanligini, unga tarkibiy bog'liqligini va ana shu tarbiyadan kelib chiqqanligini hisobga olish zarur.

Ma'lumki, voqelikka estetik munosabat tarixiy va ijtimoiy zarurat hisoblanadi va bu qoida mutlaqo shubhasizdir. Chunki, uni hayotining o'zi tasdiqlaydi, insonning dunyoga estetik munosabati to'g'ri va noto'g'ri bo'lishi mumkin. Har qanday narsani to'g'ri idrok etish va estetik jihatdan to'g'ri baholash uchun avvalo normal sezgi organlari va umuman normal psixika bo'lishi shart.

Masalan: Ko'r odam tabiatning go'zalligini, rassomning manzarasini estetik idrok eta olmaydi. Lekin, shaxsning psixofizik xususiyatlari uning sezgi organlari, dunyoga to'g'ri estetik munosabatning yagona omili bo'la oladimi? Masalan, ko'r va kar o'zining "men tashqi olam bilan qanday aloqa qilaman" degan so'zlarida, uni paypaslab, hidlab ko'rish, sezish juda rivojlanganligi sababli u bo'ladigan voqelikni ham haykallarini, musiqani idrok eta oladi, badiiy adabiyot asarlarini o'qiy oladi.

Buyuk kompozitor Lyudvig Van Betxoven ajoyib musiqa yaratgan va uni hatto baxtsizlikka uchragan, ya'ni deyarli kar bo'lib qolganida ham idrok etgan.



Lyudvig Van Betxoven.
(1770 – 1827)

Mana shu ikkita misol sezgi organlari dunyoga to'g'ri estetik munosabatning yagona omili emasligidan dalolat beradi. Kishilarning estetik kamol topishi va estetik ijodi keng xalq ommasining yutug'udir. Estetik qadriyatlarining hammabopligi va ularni yaratishda qatnashish imkoniyatlarining mavjudligi har bir kishi uchun go'zallik olamiga yo'l ochadi. Hozirgi kunda moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishda qatnashayotgan barcha kishilarda ijodiy qobiliyatlarni o'stirish g'oyat muhim vazifadir.

1. San'at voqelikning estetik in'ikosidir. Har qanday san'at asarida obyektiv voqelikning biror tomonini estetik va mana'viy jihatdan baholash, yaqqol yoki yashirin holda mavjud bo'ladi;

2. San'at o'z tabiatiga ko'ra emotsionaldir va shuning uchun u kishilarning hissiyotiga ta'sir ko'rsatib ularda hamdardlikni, muayyan emotsional baholash taassurotini paydo qiladi;

3. San'at madaniyatining keng ommada jonli qiziqish uyg'otadigan sohasidir;

4. Bizning jamiyatda faqat xalqning madaniy saviyasi oshganligi uchun emas, balki texnikaning, xususan, kino, radio va televidenianing rivojlanganligi sharofati bilan ham san'at barcha uchun barobardir. Hozir san'at bilan deyarli har kuni muloqotda bo'lmaydigan kishi yo'q;

5. San'at bilan bog'lanish insonning ma'naviy dunyosini boyitadi, unda go'zallik qonunlari bo'yicha yashash ishtiyoqini uyg'otadi.

Musiqaning barkamol insonni tarbiyalashdagi roli juda katta ekanligi ma'lumdir. Musiqa tarbiyasi bo'yicha xalqaro jamiyatning IX konferensiyasida uqtirilganidek, musiqa insonning ma'naviy dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadi va unga har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasb-korlikda zarur bo'ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda yordam beradi.

Birinchidan, texnikaning tezkor rivoji va jarayonida o'zlashtirish lozim bo'lgan axborotlarning ko'payishi inson aqlini takomillashtiradi va hissiyotlarini ma'lum darajada qashhoqlashtirishi ham mumkin. Ana shu hol yuz bermasligi uchun mamlakatimizda shaxsni har tomonlama ug'un kamol-toptirish yo'lida barcha chora-tadbirlar qo'llanmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda musiqaning ahamiyati katta. Musiqa insonning ongi va ma'naviy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu sababli u inson uchun ma'naviy go'zallikning, qalbi poklikning mustahkam omilidir. Musiqa insonni umidsizlikka tushmaslik, bag'ritosh va xudbin qilib qo'ymaslikning oldini oladi. Bu o'rinda hamma narsa insonning qanday musiqani tanlashiga va uning mohiyatini qanchalik to'g'ri baholashiga bog'liqdir.

Bugungi globallashuv davrida musiqa, estetik tarbiya madaniy hayotimizda tobora keng o'rin olmoqda. Shunga ko'ra, mamlakatimizda musiqa madaniyatini rivojlantirishga, yoshlarni estetik tarbiyalashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Musiqa san'ati namoyondolari zimmasiga yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratish vazifalari yuklanmoqda va bu vazifalar ancha muvaffaqiyatli hal qilinmoqda. Demak, musiqa fani o'qituvchi va murabbiylari ham estetik tarbiya oldiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda o'z yaratgan asarlarini yaxshi turmush tarzi bilan bog'lab, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, yurtparvarlik, ozod va obod kelajak, insonparvarlik, tuyg'ularini shakllanishiga munosib hissa qo'shmog'i zarur.

O'zbek milliy cholg'u asboblari milliy tilimiz, milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz va milliy kiyimlarimizdek har birimiz uchun yanada qadrli bo'lmog'i uchun, ularni zamonaviy nuqtai nazardan o'rganmog'imiz, yoshlarga o'rgatmog'imiz, musiqa ilmini boyitmog'imiz va takomillashtirmog'imiz lozim

va shu yurt tuprog'ida yashovchi, o'zini shu el farzandi, shu yurt jonkuyari deb hisoblovchi har bir fuqaroning muqaddas burchi bo'lmog'i zarur. Toki jonkuyar, fidoiy farzandlari bor yurtga, elga, millatga zavol yo'qdir.

Ulug' ajdodlarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Termiziy, Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Farg'oniy, Motrudi, Forobiy, Ibn Sino va boshqa ko'plab allomalarimizning vatan ravnaqi yo'lida qilgan xizmatlari yoshlarimiz uchun ibrat maktabidir. Bu buyuk zotlar o'z faoliyatlari davomida musiqa ilmi bilan ham shug'ullanishgan.

O'quvchi – yoshlarni milliy sozlarimiz bilan tanishtirish va ularning yaratilishi tarixi to'g'risida so'zlab berish, cho'lg'u asboblarining mohir, ko'zga ko'ringan ijrochilari va shu ijrochilar faoliyati to'g'risida ma'lumot berish, har bir cholg'u asbobining roli, kuyning ijrosi, haqida gapirib berish, ularda milliy madaniyatimizga, qadryatlarimizga va xususan, musiqa san'atiga bo'lgan hurmat va muhabbatni oshiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.



Al - Forobiy



Ibn Sino

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Iqtisod, 2008.
2. Odilov A. «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi» Toshkent.; 1995
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – Toshkent: Ma'rifat, 1997.
4. Qudratov I. O'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. – Toshkent: Fan, 2009.

4. Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarining tashkiliy uslubiy asoslari

Reja:

1. Musiqiy ta'lim tizimida cholg'uchilik mashg'ulotlarini tashkiliy-tuzilish xususiyatlari.
2. O'quvchi-yoshlarni cholg'u asboblari ijrochiligiga o'rgatish faoliyati mazmuni.
3. Umumta'lim maktablari, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda cholg'u ijrochiligiga o'rgatish shakllari.
4. Rubob cholg'usi haqida umumiy ma'lumotlar.
5. Rubob cholg'u ijrochiligiga o'rgatish bosqichlari.
6. Rubob cholg'usini o'rganishda nazariy savodxonlik.

Tayanch iboralar: *shtrix, zarb, liga, ligatto, spikatto, stakatto, detashe, martle va boshq.*

Cholg'u asbobini o'rgatish jarayoniga alohida faoliyat sifatida qarab muayyan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib aytish mumkinki, bu o'rinda asosiy diqqat o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, san'atdagi go'zallikni tushunish va his etishga o'rgatish, o'zbek va qardosh xalqlar madaniyati va san'atida alohida nom qoldirgan, jahon xalqlari va kompozitorlari asarlari bilan tanishtirishga qaratilmog'i lozimdir.

Ushbu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan pedagoglar bilan suhbatlarimizda shu narsaga ishonch hosil qildikki, o'quvchilarga cholg'u sozini havaskorlar darajasida chalishni, har qanday asarni notalari bo'yicha mustaqil o'rganishlari uchun yetarli darajada musiqa savodini, tahlil qilish va varaqdan o'qishni o'rgatish zarur. O'quvchilar musiqani muntazam diqqat bilan tinglashlari, uni nazariy tahlil qilishlari, varaqdan o'qib o'rganish malakalariga ega bo'lishlari shart.

Biz respublikamiz ta'lim tizimining musiqa ta'limi berishga yo'naltirilgan bo'limlaridagi cholg'u ijrochilik faoliyatining mazmunini tadqiq qilgan ko'plab musiqachi-pedagog va olimlarning ishlarini o'rganib chiqdik. Ularning barcha yetakchi psixologik-pedagogik va musiqashunoslik konsepsiyalarini jamlagan holda, ularni tahlil qilish asosida cholg'u ijrochilik faoliyati mazmunini belgilash uchun quyidagi komponentlarni tanlab oldik:

1. Musiqiy estetik bilimlar, ijrochilik ko'nikmalari, musiqa bilan amaliy shug'ullanish, musiqa asarlarini tahlil qilish va estetik baholash, musiqa asarlarini ijro etish va og'zaki talqin etish hamda juz'iy musiqa yaratish bo'yicha ijodkorlik tajribasini, musiqaga va musiqiy faoliyatga estetik munosabat tajribasini shakllantirish.

2. Cholg'u sinfida o'quvchilarga cholg'uchilikni o'rgatish asosiy vazifa hisoblansada, o'quvchilarni faoliyati faqat ijrochilikdan iborat bo'lib qolishi mumkin emas. Bizningcha, bu borada o'quvchilarni cholg'u asbobini o'rganishga rag'batlantirish, turli janr, shakl va uslubdagi kuy-qo'shiqlarni

chala olish, varaqdan o'qish, ansablda chalish, mashq va etyudlarni o'rganish asosida texnik malakalarni tarkib toptirishi asosiy vazifa qilib qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3.O'qituvchi cholg'u asbobini o'rganish jarayonidagi musiqiy ijrochilik faoliyatini har xil turlarini o'quvchining asosiy repertuari atrofiga jamlaydi va o'rganilayotgan asarlar bilan bog'laydi.

4.Musiqani varaqdan o'qish va (pedagogning ijrosida hamda texnik vositalar yordamida eshitish orqali) tinglash uchun janr-uslub belgilari bo'yicha o'quvchining asosiy ijrochilik repertuari bilan asarlar tanlanadi. Asarlarning obrazli mazmunini, kompozitsion tuzulishini va musiqiy ifodaliligini tahlil qilish bilan bog'liq topshiriqlar ijroning badiiy sifatini (dinamikasi, artikulyatsiyasi, nuyanslari, ijro texnika) lari va ijro uslublarini izlashga qaratiladi.

5.Ijodiy musiqa mashg'uloti elementlari (eshitganini chalish, tovushlarni ko'chirish, aranjirovka, jo'r bo'lish va hokazolar) o'quvchining ijrochilik repertuariga va musiqiy nazariy bilimlarning hajmiga bog'liq amalga oshirishni o'quv jarayonida tizimli yo'lga qo'yilishi lozim.

6.Musiqani varaqdan o'qish, juz'iy ijod qilish, eshitish va estetik baholash bo'yicha tobora oddiydan murakkablashib boradigan ta'limiy topshiriq va vazifalarning izchilligi o'quvchilarda musiqani o'rganish jarayonida olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini jamlaydigan turli musiqiy faoliyat tizimini tarkib toptiradi.

Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarning ta'kidlashiga ko'ra, o'quvchilarni tanlagan cholg'u asbobida zarur ijrochilik malakalarini egallashlari va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash birgina cholg'u sozini mukammal o'rganishning o'zi yetarli emas. Shu sababli o'quvchilarga har bir cholg'u sozi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular yordamida ijro etiluvchi kuylarni maromiga yetkazib chalish usul va yo'llari haqida ma'lumot berish foydalidir. Masalan, g'ijjak sozini chalish texnikasiga xos xususiyat va eng muhim element o'ng qo'lni to'g'ri ishlatishdir. Bunda qo'lning yelka tirsakgacha bo'lgan qismining harakati, shuningdek, panja hamda barmoqlar harakatidan iborat asosiy uch holat namoyon bo'ladi. O'ng qo'lda yelkaning bo'sh, erkin holatini ta'minlash, tirsakni erkin bukib, barmoqlar bilan g'ijjak dastasining yuqori qismi ushlanadi va panja tirsak bilan bog'lanish qismida kichik barmoqqa tomon egiladi.

Pardalar (simlar) ni bosishida barmoqning yumshoq qismi bilan bosish va imkon qadar har bir pardada tebratma hosil qilishga erishish zarur.

G'ijjakda kuyning yuksak mahorat bilan ijro etilishini ta'minlovchi bir qator texnik imkoniyatlarga ega. Shulardan biri-bu "detashe" bo'lib, u kamonning dastasidan to uchigacha bo'lgan oraliqda bir tekisda, uzmasdan, torta olishga aoslanadi.

Kuyni mahorat bilan ijro etilishida "markato" belgisiga amal qilish ham muhimdir. Bu belgidan foydalanishda kamonni simga imkon boricha

yopishtirib, to'liq tortib chalish maqsadga muvofiqdir. Kamon harakati almashtirilganda ham kamonni simdan uzmaslikka harakat qilish lozim.

“Legato” shtrixi esa tovushlarni urg'usiz bir-biri bilan birlashtirib chalinishni ifodalaydi. “Markato”shtrixida ijro etish ba'zan mardonavorlik, jasurlik, shijoatli asarlarda kuzatilsa, ba'zan raqs xarakteridagi asarlarda ham ko'zga tashlanadi.

“Stakkato” bu keskin, uzib-uzib ijro etishni talab qiladigan belgi sanaladi.

“Spikkato” yetarli darajada ijro malakasiga ega bo'lgan g'ijjakchilar uchun samarali bezak turi bo'lib, u gorizontal harakatlanishda kamonni sim ustiga erkin tashlash va hosil bo'ladigan sakratma harakatlar asosida yuzaga keluvchi shtrix hisoblanadi. Ijroning mukammalligini ta'minlovchi shtrixlardan yana biri “rikashet” bo'lib, u vertuoz sozandalar uchun xosdir. U boshqa sakratma harakatlardan o'z tembr bo'yog'i bilan ajralib turadi.

O'quvchilarda nazariy bilim va amaliy ijrochilik malakalarini shakllantirishda rubob sozi va uning ijrosidagi texnik sifatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

SHTRIX (ZARB) LAR

Musika asbobida tovush chiqarish usuli shtrix deyiladi. Chalish vaqtida qanday shtrix tanlab olish asarga turlicha xarakter va joziba beradi. Rubobda tovush hosil qilishda noxun (mediator) ni pastga chertish – **II**, yuqoriga chertish esa – **V** belgilari bilan ko'rsatilib, tegishli notaning ustiga qo'yiladi. Agar noxun zarbini ishlatmasdan chap qo'l barmoqlari yordamida torni sadolantirish kerak bo'lsa, u holda + belgisi qo'yiladi.



E s l a t m a: Ba'zi adabiyotlarda torni pastga yoki yuqoriga chertish belgilari turli ko'rinishlarda uchrashi mumkin.

Rubob cholg'u ijrochiligida mayda rez va tremololardan foydalanish ijroga yangicha joziba bag'ishlaydi. Rubob odatda “mediator” orqali chalinib, har bir zarb ustida alohida ish olib borish, kerakli ohangni chiqara olish eng muhim vazifalardan biridir.

Rubob sozida ijroni sifatli bo'lishini ta'minlovchi omillardan biri- applikaturaning qulay tanlanishidir. “Applikatura” rubob pardalariga (deyarli barcha cholg'u sozlarini) barmoqlarni to'g'ri va qulay joylashtirish, ma'lum notalar guruhi yoki musiqiy frazaning bir qismini chalish uchun barmoqlarni chamalab joylashtirilishi demakdir.

Cholg'uchilik tajribasidan ma'lumki, barmoqlarni grif (dasta) ustiga joylashtirishning ikki xil turi tor joylashuv va keng joylashuv mavjudligini

ko'rsatadi. Tor joylashtirish asosan, yarim tonlar tarzida yuqoriga tomon harakatlanish orqali yuzaga keladi.

Masalan:



Bahor valsi

Mayin

M.Mirzayev



Keng joylashuvda esa butun ton birinchi va ikkinchi notalar oralig'ida olinadi. Rubob, dutor va tanburlarda olti xil pozitsiyada chalish holati mavjud. Pozitsiyalar almashuvini bilmay turib, ijroda yetarli sifatga ega bo'lish qiyin. Cholg'u asbobida musiqa asari ustida ishlash bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich: Nota matni bilan ilk tanishish uni o'qishdan tushunib olish va ilk tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Bu ish asarni xarakterini his etish, asosiy mazmunni anglash, undagi qiyinchiliklarni, ifodaviylik o'rinlarini belgilab olish uchun zarurdir.

Dastlabki tovushlar chiqarish varaqdan o'qish, sekin tempda nota o'qish ko'nikmalarini hosil qilish lozim.

Ikkinchi bosqich: Asarni qismlarga bo'lib o'rganish. Tovushni kerakli sifatini topish, qulayroq applikaturani belgilash, texnik qiyinchiliklar ustida ishlash va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich: Bu bosqichda asarning g'oyasini uzil-kesil aniqlash, badiiy ijro vazifalarini hal qilish va xususiy talqinni vujudga keltirish asosiy vazifa hisoblanadi. Asar bo'laklar bo'yicha o'rganilgach, yaxlit ijroni yaratish, uni zaruriy sur'atga yetkazish ustida ish olib boriladi.

Ijrochilik malakalarini shakllantirishda yana bir qator texnik jihatlar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

TOVUSH USTIDA ISHLASH

1. Tovush ustida ishlash. Cholg'u sozida tiniq, kerakli dinamika va ohangdorlikni hosil qilish, tovush ustida ishlash orqali amalga oshadi. Bu o'rinda tovushni to'liq eshitish, uning harakatini va rivojlanishini sezish eng muhim ko'nikmalar hisoblanadi. Tovush ustida ishlash musiqiy intonatsiya bo'yicha shug'ullanish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, musiqa tabiatiga ko'ra intonatsiyalidir.


Turli balandlik tovushlar vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi. Har bir sakkizinchi tovush birinchi tovush bilan nomdosh bo'lib, faqat balandroq jaranglaydi. Bir-biriga yaqinroq turgan nomdosh tovushlar orasidagi masofaga *oktava* deyiladi.




TOVUSHLAR CHO'ZIMI

Tovushlar o'z balandligi (ingichka-yo'g'onligi) dan tashqari bir-biridan cho'zimi (uzun-qisqaligi) bilan ham farq qiladi. Tovushlarning cho'zimi nota yo'lga yoziladigan notalarning turli xil shakllari bilan belgilanadi:

Tovush va oktavalarning nomi hamda tartibini bilganimiz holda birinchi oktavadagi «sol» notasiga qarab qolgan notalarning nomi va balandligini ham aniqlashimiz mumkin.





Butun nota to'rtgacha bir tekis sanab, tovushni cho'zib turish bilan xarakterlanadi:

 – Butun nota 1 i, 2 i, 3 i, 4 i deb sanaladi.

Yarim nota ikki «i» gacha sanab ijro etiladi. Cho'zim jihatdan u butun notaning yarmiga teng.

  – Yarimtalik nota 1 i, 2 i va 3 i, 4 i deb sanaladi.

Chorak nota ichi qora rangda bo'yalgan, dumaloq shaklda bo'lib, uning o'ng tomonidan yuqoriga yoki chap tomonidan pastga qarata to'g'ri chiziq (shtil) chiziladi. Uning cho'zimi yarim notada ikki marta, binobarin, butun notadan to'rt marta qisqa bo'lib, butun notaning to'rtidan bir bo'lagi hisobida sanab ijro etiladi:



1 i, 2 i, 3 i, 4 i deb sanab ijro etiladi.

Nimchorak nota sakkiztalik deb ham aytiladi va pastga yoki yuqorisiga bayroqchali yon chiziq chiziladi. U chorak notaning ikkiga bo'linish hisobidan kelib chiqadi yoki yarim notaning to'rtga, butun notaning esa sakkizga bo'linish hisobidan ijro etiladi.



1 i 2 i 3 i 4 i deb sanab ijro etiladi.

2. Metroritm ustida ishlash: Musiqa san'atining vaqt bilan davom etadigan turidir. Musiqaning tovush rang-barangligi kabi badiiy ohangdorlikning intonatsion uzluksizligi, ritm, uslub, janr va shakl qonuniyatlariga bo'ysunadi. Tovushlarning turli hajmdagi cho'zimi (uzun-qisqaligi) va jaranglashidagi (tembr) uzulishlar musiqa metri deb ataladigan muayyan tizimdagi shartli nota kattaliklari vositasida yoziladi. Jonli musiqa ijrosi hech qachon nota yozuvidagi arifmetik o'lchovlarga to'la mos kelishi mumkin emas. Nota yozuvi sxema

bo'lib, ijrochining asar xarakterini o'zicha talqin qilishidan kelib chiqadi. Asarni to'g'ri ijro etish uchun doimo ritmni to'g'ri belgilash zarur. Agar u bo'lmasa ijroda pala-partishlik ro'y beradi, obrazli talqin buziladi.

Oliy pedagogik ta'limdagi "musiqiy ta'lim" yo'nalishi o'quv rejasidagi mutaxassislik fanlari umumiy musiqa pedagogikasining tarixi va nazariyasini ham, uni o'qitish metodikasini, cholg'u ijrochiligida muayyan cholg'ularini yetarli darjada chalishga o'rgatish kabilarni qamrab oladi. Bu esa bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kelajakdagi pedagogik faoliyatida muhim o'rin tutadigan xususiyatlardan hisoblanadi. Biz shunga muvofiq asosan, "musiqiy ta'lim" ixtisosligida "cholg'u ijrochiligi" mashg'ulotlarini tashkiliy-pedagogik va uslubiy negiziga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Maxsus cholg'u asboblari sinfida mashg'ulotar olib boradigan pedagoglar avvalo, o'zining cholg'u asbobi turi bo'yicha o'quvchilarga yetkazadigan cholg'u ichrochilik mezonlarini, ularni ro'yobga chiqarish vazifalarini, o'quv dasturi talablarini yaxshi bilib olmog'i lozim. Bu vazifalar faqatgina cholg'u asboblarni chalishni yaxshi o'rgatishdangina iborat bo'lib qolmasligi kerak. Bu o'rinda o'quvchiga eng muhimi, kelgusidagi pedagogik faoliyatida qiynalmasdan chiroyli, badiiy ta'sirchan qilib chala oladigan darajadagi malaka va ko'nikmalarni singdira olish lozim. Bu faoliyat o'z tabiatiga ko'ra juda ham serqirra bo'lib musiqa o'qituvchisi darsda faqatgina ma'lum bir kuyni chalish bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayonda u yaxshi "jo'navozchi" ham bo'lmog'i shart. Bunda eng muhimi bo'lg'uvsi o'qituvchilarda musiqani sevishtirish, qiziqishini shakllantirish va ularda o'rganilayotgan musiqa soziga muhabbatni o'stirish, cholg'u asboblari yordamida musiqiy faoliyatga ehtiyoj va to'g'ri munosabatni hosil qilish va o'z ustida mustaqil ishlash hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish muhimdir.

Cholg'u asboblarni o'rganish mashg'ulotlari juda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Shuning uchun bu jarayonda ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni uzviy birlikda, bir-birini to'ldiradigan holda tashkil etish zarur.

Umumiy pedagogikaning didaktik prinsiplariga ko'ra har bir darsga ta'lim va tarbiya tizimining bir qismi sifatida qarash lozim. Bunda tarbiyaviy ish ta'lim jarayonini to'ldiradigan ikkinchi omil hisoblanmasligi kerak. Binobarin, bu faoliyat ta'lim bilan didaktik birlikni tashkil qiladi.

Yakka tartib holdagi cholg'u asboblari sinfida olib boriladigan barcha ta'limiy va tarbiyaviy ishlar har xil uslub, janr va shakllarda musiqa asarlarini o'rganish jarayonida amalga oshadi. O'qituvchi o'z shogirdiga asarlarni o'rganish bilan uning xususiyatlarni anglab olishni, asar mazmuni va g'oyasini tushunishni, uning musiqiy tilining mohiyatiga kirib borishini, chalishni o'rganishning usul va yo'llarini o'zlashtirishni o'rgatib borishi kerak. Bularning hammasi musiqaga muhabbatni, unga qiziqishni va cholg'u asbobida ijro etish ehtiyojini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Mana shu oxirgi maqsadga erishish uchun o'qituvchining o'zi musiqani astoydil sevishtirish, o'zidagi bor mahorat va tajribani shogirdlariga berishga intilishi zarur.

Bu o'rinda musiqa o'qituvchisi birinchi navbatda har bir o'quvchining musiqiy qobiliyatlarini, qiziqishlarini, ijrochilik imkoniyatlarini, mehnatsevarligini, berilgan topshiriqlarini mustaqil bajarish bo'yicha iqtidorini va boshqa "shaxsiy sifatlarini" chuqur va har tomonlama o'rganib borishi lozim.

Ikkinchidan, o'qituvchi cholg'u soziga bo'lgan o'quvchining munosabatini sinchiklab kuzatib borishi va unga ijobiy ta'sir etish yo'llarini topishi va amalda qo'llash kerak bo'ladi.

Uchinchidan, o'quvchining musiqiy qobiliyati, qiziqish va imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'rganish uchun asarlar tanlashi lozim. Bu narsa cholg'u asbobida chalish malakalarini o'zlashtirishda eng muhim omillardan hisoblanadi.

To'rtinchidan, dars jarayonida "bir xil" uslubdan qochish, mashg'ulotlarni tashkil etishning yangi-yangi usullarini topish va qo'llash, ayniqsa, ta'limning texnik vositalaridan keng foydalanish yaxshi samara beradi. Bu jarayonda o'quvchi yaxshi musiqa ijrosini tinglashi tufayli unda o'zi ham o'shanday darajada ijro etishga havas uyg'onadi. Bu havas intilishga aylanadi. Bu esa ijrochilik malakalari shakllanishining eng muhim bosqichidir. Mana shunday uzviylik va davomiylik tamoyillari asosiga qurilgan mashg'ulotlar davomida o'quvchini o'z ijrosini eshitish, taqqoslashga o'rgatish malakalari shakllanib va takomillashib borishi tabiiy.

Mana shu jarayonda mashg'ulotlarning samarador kechishi ko'p jihatdan o'qituvchining har bir o'quvchiga individual yondashuviga bog'liqdir. U ishda muvaffaqiyatga erishishi uchun o'quvchining shaxsini yaxshi bilishi, mashg'ulotlar paytidagi xatti-harakatini tahlil qilishi kerak. Darslarni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish uchun mashg'ulot o'tkaziladigan xona talab darajasida jihozlangan bo'lmog'i lozim. Xonada albatta, fortepiano cholg'u asbobi bo'lishi shart. Shuningdek, o'qituvchi uchun stol, ikki-uch stul, cholg'u asbobi, nota yozuvlari, ko'rgazmali plakatlar, nota yozuvi uchun mo'ljallangan doska, musiqa tinglash uchun texnik vositalar magnitofon, audio-video magnitofon, iloji bo'lsa, televizor, musiqiy markaz, kompyuter, kompozitor-bastakorlar suratlari, musiqa asarlari to'plamlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Mashg'ulotlar jarayonida san'atning yaqin sohalariga murojaat etishga, taqqoslashga, solishtirib ko'rish, qayta eshitib ko'rish kabilarni amalga oshirishga to'g'ri keladi.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarga asardagi obrazlarni his etishga, ular haqida hikoyalar tuzishga, o'z taassurotlarini so'zlab berishga o'rgatish, mustaqil topshiriqlar berish muhim o'rin tutadi. Xulosa qilib aytganda yakka tartib fanlarini tashkil etish va uni muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi omillarni barpo qilish ko'p jihatdan o'qituvchining tashabbuskorligiga, o'z kasbini va shogirdlarini sevrishga, izlanuvchanligiga bog'liqdir.

Cholg'u ijrochiligi sinflarida o'quvchilarga ijrochilikni o'rgatish asosiy vazifa hisoblansada, ularni ijrochilik malakalarini shakllantirishda yordamchi

vositalarning o'ri va ahamiyati katta ekanligini unutmaslik va shu asosda zarur shart-sharoitlarni yaratish eng muhim vazifasi ekanligini unutmaslik darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –Toshkent: Ma`rifat, 2000.
2. Abralova M., Galiyeva D., Qo'shayev A. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008.
3. Odilov A.I. O'zbek xalq cholg'u asboblari tarixi. –Samarqand: SamDU, 2010.
4. Petrosyans A.I. Cholg'ushunoslik. – Toshkent: San'at, 1990.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-10 jildlar. –T.: O'zME, 2006.
6. Qo'chqorov G'. O'zbek milliy cholg'ularini o'rganaylik. – Toshkent: Musiqqa, 2002.


5. Cholg'u mashg'ulotlarida ijrochilik malakalarni shakllantirishning texnik shartlari.

Reja:

1. Rubob cholg'usini o'rganishda texnik shartlarni o'zlashtirishning ahamiyati.
2. Rubob cholg'usining turlari (quyma va texnik rubob).
3. Rubob cholg'u ijrochiligiga o'rgatishning o'ziga xos elementlari. (holat, barmoqlarni qo'yish, applikatura, pozitsiya)
4. Cholg'u ijrochiligida mashq, gamma, etyudlarni o'rganish uchun ma'lumotlar.

Tayanch iboralar: *tashqi holat, barmoqlarni qo'yish, applikatura, pozitsiya va boshqalar.*

Texnik rubob



1. Quloqlar, 2. Rubobning bosh qismi, 3. Shayton xarrak, 4. Pardalar, 5. Dasta, 6. Teri, 7. 1-tor, 8. 2- tor, 9. 3- tor, 10. Xarrak, 11. Ilmoqlar, 12. Kosa

Cholg'uchilik bo'yicha zarur bilim va malakalarni shakllantirishda cholg'uchilikning o'ziga xos texnik shartlari borki, ularni o'zbek milliy cholg'ularidan biri bo'lgan, musiqa darslarini o'tishda eng qulay asboblardan hisoblanmish **rubob sozi** misolida ko'rib chiqamiz.

Shuning uchun ham har qanday cholg'u sozini o'rganish uchun asarlar tanlashda o'quvchini (o'quvchini) texnik mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan asarlar (mashqlar, etyudlar)ga ham alohida e'tibor beriladi.



Rubob cholg'usining ikki turi mavjud. Ulardan biri "texnik rubob" deb yuritiladi, ularning kosasi asosan fanerlardan ishlangan bo'lib, dastasi ham qo'lni yuritishga qulay qilib ishlangan bo'ladi.

Texnik rubob



Ikkinchisi “o’yma rubob” deb nomlanuvchi ruboblar bo’lib, uning kosasi tut, yong’oq, o’rik kabi daraxtlardan ishlanadi. Taniqli sozandalar o’yma ruboblarning jarangi ancha mayin va o’ziga xos yorqin chiqishini ta’kidlaydilar.

O’yma (qazma) rubob



O’yma ruboblar asosan o’zbek xalq kuylari va mumtoz kuylarni ijrosiga moslab yasalgandir. Undan maqom asarlarini ijro etishda ko’proq foydalanadilar.

Qquvchilarni rubob sozida ijrochilik sirlarini o’rganishlarida uni ijro etishni o’ziga xos uslublaridan va texnik shartlaridan xabardor bo’lishlari talab etiladi. Bunga yana bir sabab umumta’lim maktabi o’quvchilarini, ko’pchiligi maktab badiiy havaskorlik to’garaklariga rubob sozini o’rganish uchun borishadi va ularning ko’pchiligi ushbu cholg’uni durustgina chala oladilar ham. Shu sababli o’qituvchining o’quvchilardan ustunligi ularning chalishda mahoratli bo’lishidan tashqari muayyan ijro uslublar va shartlarini yaxshi egallagan bo’lishini taqqozo etadi.

Rubob odatda “mediator” bilan chalinib, uni harakatlantirishda mediatori yuqoridan pastga “V” va pastdan yuqoriga “V” tomonga yurgizish asos hisoblanadi.


Rubobda tovush hosil qilishda noxun (mediator) ni pastga chertish – **II**, yuqoriga chertish esa – **V** belgilari bilan ko’rsatilib, tegishli notaning ustiga qo’yiladi.



Har bir zarbni shunday amalga oshirish kerakki, bunda mediator uchi simlar orasida tiqilib qolmasligi, tirnamasligi, ovoz tabiiy, mayin va erkin chiqishi zarur. Mediatorni simlar aro erkin harakatlantirish, I, II, III simlarga ko'chirish sezilarsiz amalga oshirishni, ixtiyoriy ohangni chiqara olish kerak, mediatorni pastga, yuqoriga harakatini tez va sekinligi uni chalishdagi eng muhim texnik shartlardan biri hisoblanadi.

Rubobda tovush hosil qilishning bir qancha usullari bo'lib, ulardan asosiylari quyidagilar:

1. **T r e m o l a (rez)** – rubob chalishda asosiy usullardan hisoblanib, noxunni pastga va yuqoriga tez va bir tekis chertish orqali hosil qilinadi. Tremola tegishli nota shtiliga ko'ndalang chiziqchalar tortish bilan ko'rsatiladi:



Trimololar odatda sakkiztalik notalardan boshlanadi va o'n oltitalik darajaga yetkaziladi. Rezlar esa undan maydaroq bo'lib, u tez suratdagi o'n oltitaliklar yoki o'ttiz ikkitaliklardan, ba'zan oltmish to'rttalikacha darajaga yetkazilishi mumkin.

Tremolo va rezlardan mohirona foydalanish ijrochining kasbiy mahorati darajasini belgilovchi muhim belgilar hisoblanadi. Shuning uchun rez va trimololar ustida ishlashni butun ta'lim davrida izchil yo'lga qo'yish talab etiladi.


Harakat tezlanishi bilan “rez” va “tremolo” elementlari hosil bo'ladi. Tremola odatda sakkiztalik notalardan boshlanib o'n oltitalik darajaga yetadi,

uni yanada tezlashuvi natijasida “rez”lar paydo bo’ladi. Rubob sozini chalishda “tremola” va “rez”larni o’zlashtirish anchagina murakkab ijodiy jarayonni talab qiladi.

2. **D e t a s h e (qisqa rez)** – notani cho’zimiga qarab alohida rez bilan chalish usuli bo’lib, notalar usti yoki ostiga gorizantal chiziqcha qo’yish bilan belgilanadi.




3. **L i g a** yoki yoy bir xil balandlikdagi qo’shni tovushlarni birlashtiradi:



Cholg’u ijrochiligidagi yana bir texnik shartlardan bu “ligato” bo’lib, u o’ziga xos “kuylash” imkoniyatini yaratadi. Yaxshi «legato» ning muhim sharti chalinayotgan tovushlarni yagona tizim sifatida, ya’ni har bir tovush go’yo o’zidan oldingi tovushdan kelib chiqayotganidek tasavvur etishga o’rgatishdan iboratdir. Tovush ohangdorligi ko’proq cholg’uchini tovush pardalarini butun dastani boshidan oxirigacha to’la va erkin bosa olishiga bog’liqdir. **Legato** haqida gap borar ekan, shunga e’tibor berish kerakki, legato shtrixi tovush chiqarishning boshqa usllari- non legato, portamento, stakkatolarni o’zlashtirishning asosi bo’lib hisoblanadi.



4. **L e g a t o** – bir necha tovushni bir-biriga bog’lab, silliqchalish usuli bo’lib, notalarning usti yoki ostidan yoysimon chiziq tortiladi. Rubobda legato usuli ko’pincha rez bilan ijro etiladi:



Uni o'zlashtirishda o'quvchi bir tovushdan boshlab bir necha tovushlarni uzviy bog'lab, uni cho'zimini mayin tremololar bilan o'zlashtirishi va chiroyli tugallashga erishish zarur.

5. **S t o k k a t o** – noxun bilan rubob torlarida tovushlarni qisqa-qisqa, bir-biridan ajratib chalish usuli bo'lib, notalarning usti yoki ostiga qo'yilgan nuqtachalar bilan belgilanadi.

Menuet

V. Motsart



O'quvchida musiqani xarakteriga qarab, bir xil tovushlarni har xil ohangda va turli usulda ijro etish ko'nikmasini tarbiyalash ham muhimdir. Sinfda nyunans ustida ishlashga ham alohida shartlar sifatida qarash kerak. O'quvchi har qanday fraza dinamikada ifodalanishini va bunga har xil darajadagi tovushlarni kuchayishi va so'nishi bilan erishish mumkinligini tasavvur etish kerak.

Rubob sozida tovush hosil qilish ustida ishlash musiqa ijrochiligining eng asosiy ishidir. Tovush hosil qilishni ochiq simlar (tovushlar “lya, mi, si,”) dan boshlash maqsadga muvofiqdir. Tovushni yetarlicha baholamaydiganlar asosiy vazifa sifatida epchil ijro etish malakasini asosiy o'ringa qo'yadilar, tovushga ortiqcha baho beradiganlar esa, aksincha, chiroyli tovushi bilan chalishga ko'proq ahamiyat beradilar. Bizningcha, ijrochilik texnikasini yetarli darajada o'zlashtirmay turib ohangdor tovush hosil qilish ham mumkin emas.

Shuni unutmaslik kerakki, ohangdor kuylarni ijro etishdagi asosiy kamchiliklar ko'pincha tovushlarni oxirigacha yetkazmaslikdan va qo'l harakatini tovushlar (pardalar) ustida mayin, sezilarsiz yurita olmaslikdan kelib chiqadi. Qo'l pardalar ustiga erkin yurmasa, cho'zimlar oxiriga yetkazilmasa, musiqiy tovushlar uzuq-yuluq bo'lib qoladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik o'rganuvchilarda tovushni uzoq cho'zib kuchaytira olmaslik ko'proq uchraydi. Shuning uchun ham har qanday cholg'u sozini o'rganish uchun asarlar tanlashda o'quvchini texnik mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan asarlar (mashqlar) ga ham alohida e'tibor beriladi



Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik o'rganuvchilarda tovushni uzoq cho'zib kuchaytira olmaslik ko'proq uchraydi. Shuning uchun ham har qanday cholg'u sozini o'rganish uchun asarlar tanlashda o'quvchini texnik mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan asarlar (mashqlar) ga ham alohida e'tibor beriladi.

Quyidagi mashqda o'quvchidan mediatorni pastga yuqoriga qarab yo'naltirilgan usullar orqali ijro etish talab etiladi.

№ 1.



Ikkinchi mashqda esa o'quvchidan mediatorni pastga yuqoriga qarab aralash yo'naltirilgan uzun va qisqa tovushlar hosil qiladigan usullar orqali ijro etish talab etiladi.

№ 2.



Berilgan uchinchi mashqda o'quvchidan rubob pardasiga barmoqlarni to'g'ri taqsimlab bosishga yo'naltirilgan hamda uzun va qisqa tovushlar hosil qiladigan usullar ijro etish talab etiladi.

№ 3.



To'rtinchi mashqda o'qituvchi o'quvchidan mediatorni pastga yuqoriga yo'naltirilgan bitta uzun va ikkita qisqa tovushlar hosil qiladigan usullar i ijro etishni talab qiladi.

№ 4.



Berilgan beshinchi mashqda o'quvchidan o'n oltitalik notalarni to'g'ri sanab va berilgan pauzalarga e'tibor berib ijro etish talab etiladi.

№ 5.



Ushbu oltinchi mashq nimchorak notalarni birin – ketin kelishi va barmoqlarni pardalar ustida joylashtirishni ta'minlash uchun berilgan. Bunda o'quvchining ijro sifatini rivojlanishiga e'tibor qaratilgan.

№ 6.



O'quvchini texnik mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan etyudlarga ham alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Cholg'u ijrosi sifatini belgilashda turli cho'zimdagi notalarni aniq bajarish, ya'ni "sanash" eng muhim shartlardandir. Oddiy ritmik cho'zimlarini o'zlashtirish uncha qiyin kechmasada, "punktir" ritmlarini sanashda ikkinchi "i" ni ham sanashga tog'ri keladi. Bunda o'quvchilarda ichki sanash ko'nikmalarini hosil qilish yaxshi natija beradi.

Rubob sozida ijro etish uchun qulay bo'lgan pozitsiyalar

Pozitsiyalar jadvali

The musical notation is organized into two systems, each containing three staves. The first system shows four groups of positions: (1, 2, 4), (1, 2, 4), (1, 3, 4), and (1, 2, 4). The second system shows five groups: (1, 2, 4), (1, 2, 4), (1, 3, 4), (1, 2, 4), and (1, 2, 4). Each group of positions is represented by a specific fingering pattern on the staves, with numbers 1, 2, 3, 4 indicating finger placement.

E s l a t m a: Pozitsiyadan foydalanib chalishda rubobning birinchi juft tori **a**, ikkinchi juft tori **e**, uchinchi tori **h** harflari bilan belgilanadi va notalarning ostiga qo'yiladi. Simdan simga o'tish uchun maxsus kvadrat qavs qo'llaniladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, rubob asosan pastki simlarda chalinadi. Bunda qolgan simlar **rezonans** vazifasini o'taydi.

Sur'at va shaklni o'zlashtirish ham ritm qiyinchiliklarini yengish bilan bog'liqdir. Sur'atni (temp) birligini his etishga o'rgatish uchun o'rganuvchida sanash birligini ichdan his etishni tarkib toptirish kerak.

O'quvchi to'g'ri sur'atni mo'ljallay olishi uchun unga sanash birligini ijro boshlangunicha topishni o'rgatib borish kerak bo'ladi. Ijroda eng ko'p uchraydigan kamchiliklaridan yana biri – tovush kuchayganida ijroni tezlashtirish va tovush pasayganida uni sekinlatishdir. Bu ko'proq havaskor o'rganuvchi ijrochilarda uchraydigan holdir.


Pauzalarni to'g'ri ifodalash alohida diqqatga molik "shartlar" sirasiga kiradi. Yangi o'rganayotganlar, ko'pincha qisqa va uzun pauzalarning ifodalilik ahamiyatini anglamaydilar. Bunday hollarda, pauzalarni emotsional mazmun

bilan to'ldirish zarur. Bular "savol pauzalari", "javob pauzalari" va "tasdiqlash" pauzalari bo'lishi mumkin.

Asarni rivojlanishi, kulminatsiyasini, ayrim kayfiyatlarini ham tog'ri his etishga o'rganish zarur. Agar nuqta o'z o'rnida bo'lmasa, ijrochi jaranglash va ritm kuchlarini to'g'ri belgilay olmasa, asar ijrosida "chalkashlik" sodir bo'ladi.

Ko'pincha biz o'quvchilarning cholg'u ijrosini tinglab ularning mahorati, qobiliyati, idrok etishi, texnik tayyorgarligi bir xil emasligini, ya'ni ijrochining umumiy ta'sirchanligida texnik jihatdan qoloqlikni yoki aksincha badiiy mazmunni yetarli ifoda eta olmasligini sezamiz. Bu o'rinda shuni aytish joizki, o'quvchi cholg'u ijrochilik texnikasidan foydalanishi sifatini, ya'ni "harakatning tovush obraziga muvofiqligini" anglab yetishi kerak. Bu o'rinda texnika tushunchasi so'zning tor ma'nosida qo'llaniladi. Bu so'zning kengroq ma'nosi, cholg'u asbobini o'rganishda o'ziga xos chalishning shtrixlari, usllari, umumiy holdagi ijrochilik talablari va barcha vositalardan (ko'rish, eshitish, tahlil qilish, qiyqoslash, ko'rgazmali va texnik vositalardan) unimli foydalanishni ifoda etadi.

Asarni o'zlashtirishda dinamikadan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu belgilar dinamik tuslar deb nomlanib, ular: ***p*** (piano), ***mp*** (metso piano), ***pp*** (pianissimo), ***mf*** (metso forte), ***f*** (forte), ***ff*** (fortissimo), ***kreshcendo*** ***diminuyendo*** lardir.



– ***creshcendo*** – asta-sekin tovushni kuchaytirish belgisi;

– ***diminuyendo*** asta-sekin tovushni pasaytirish belgisi;

O'quvchi asarni o'zlashtirishda texnik shartlarni (gamma, uch tovushlik, arpedjio, melizm, nyuans, shtrix, dinamika, applikatura, pozitsiya va hokazo)larni bajarishda har biri uchun alohida mashqlardan foydalanishi yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –Toshkent: Ma`rifat, 2000.
2. Abralova M., Galiyeva D., Qo'shayev A. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008.
3. Nurmatov H N. «Rubob» darslik, Toshkent., O'qituvchi 2002
6. Qudratov I. O'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. – Toshkent: Fan, 2009.
7. Qo'chqorov G'. O'zbek milliy cholg'ularini o'rganaylik. – Toshkent: Musiqa, 2002.

6. O'quvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirishning tarbiyaviy tamoyillari.

Reja:

- 1. Cholg'u ijrochiligiga o'rgatishda ta'lim va tarbiyaning mushtarakligi.**
- 2. Cholg'u mashg'ulotlari ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish omillari.**
- 3. O'quvchilarning ijodiy ijrochilik mezonlari.**
- 4. Cholg'u mashg'ulotlarida o'quvchilarni psixologik, fiziologik, individual xususiyatlarini hisobga olish.**
- 5. Mustaqil mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari.**
- 6. Cholg'u ijrochiligida o'qituvchi-rahbarning kasbiy-malakaviy va metodik tayyorgarligi.**

Tayanch iboralar: *psixologik, pedagogik, estetik tarbiya obrazlilik, ijro metodika.*

Cholg'u sozlarida ijro etishga, o'rganish jarayoni estetik tarbiya ishini samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Unda o'qituvchi va o'quvchining musiqa asarining badiiy xususiyatlari, ijro etish uslubi, obrazlilikni ijroda qo'llash yuzasidan suhbat va fikr almashishlari o'quvchi shaxsini ma'naviyatli inson sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Xalqimizning turli mazmun va janrdagi folklor, mumtoz va maqom asarlari hamda zamonaviy kompozitorlarning akademik uslubdagi yaratgan asarlari bilan yaqindan tanishish o'quvchini musiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Bu jarayonda yetuk sozandalar ijrosini texnik vositalar orqali magnit lentada yozuvini tinglash muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchining ijro etish harakatlarini nozik va chiroyli bo'lishini kuzatib borishi, ijroni asar xarakteriga mos bo'lishiga e'tibor qaratishi lozim.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalari muayyan musiqa asari ustida ishlash bilan bog'liq rivojlanadi. Bu jarayonda o'qituvchi faqat o'quvchiga o'rgatishni emas, balki, o'quvchining mustaqil fikrlash, mushohada qilish darajalariga ham e'tibor berib borishi pedagogik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Musiqiy asarni baholash, o'quvchini musiqiy – badiiy rivojlantiradi. Bu o'rinda :

- kuyning yo'nalishi, usuli (ritm) va tonalligini eshitib seza bilish;
- ijroning ifodaviyligi, sozanda ko'rinishi va harakatlarining musiqiy asar xarakteriga mos kelishi;
- ijroga ijodiy yondoshish;
- boshqa cholg'uchi sozandalarning ijro sifatlari va uslublarini to'g'ri baholay olish;

- o'quvchilarda mustaqil ishlash va ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirish muhim omillar sanaladi.

Ta'lim – tarbiya jarayoni aniqlik, tartib va davomiylik tamoyillariga tayanib ish tutishni talab qiladi. Tajribalardan ma'lumki, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan darslar ijrochi – o'quvchi ongiga, sezgi va irodasiga ijobiy ta'sir etibgina qolmay, ularda ma'lum badiiy-emotsional kayfiyatni hosil qilib, ko'zlangan maqsadga erishishda intizom, mehnatsevarlik va o'z faoliyatiga talabchanlik kabi sifatarni ham shakllantiradi.

Mashg'ulotlar faqat asar o'rganish, texnik ko'nikmalarni hosil qilish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. To'g'ri fikrlaydigan va mustaqil ishlay oladigan cholg'uchini shakllantirish asosiy vazifadir. O'qituvchi faqatgina cholg'uchilik san'atini o'rganayotgan o'quvchi bilan emas, balki, tarbiyalanuvchi bilan ishlayotganini unutmasligi kerak. Ta'lim va rivojlanish jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Rivojlanish bevosita ta'lim jarayonida kechadi. O'quvchilarning muayyan bilim, ko'nikmalarini o'zlashtirishlarining individual mohiyati ta'lim mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan ta'lim ta'siridagi rivojlanish natijasi hamma vaqt ham bir xil bo'lavermaydi. Bu yerda ta'lim jarayonining mazmuni, shakl va metodlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu jarayonda eng asosiysi o'quvchining ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish bilan umumiy musiqiy rivojlanishining bog'liqligidir,

Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarini o'quvchilarning umumiy musiqiy rivojlanishidan ma'lum darajada ajralgan holatda olib borish hollari ham yo'q emas. Buning sabablari quyidagicha:

- kundalik dars jarayonida ijrodagi kamchiliklarni bartaraf etib borish maqsadida berilayotgan ko'rsatmalar yetarli darajada asoslanmaydi, ya'ni kamchilikni keltirib chiqarayotgan sabablar atroflicha tahlil qilinmaydi;

- mashg'ulotlar paytida asosiy e'tibor ijrochilik ko'nikmalariga qaratilib, o'quvchining umumiy musiqiy rivojlanishi uchun zarur nazariy bilimlarni o'zlashtirish vazifasi ikkinchi darajaga tushib qoladi, zarur nazariy xulosa va umumlashirish amalga oshirilmaydi;

- o'quvchilarning o'rganilayotgan asarlar repertuari xarakter, ijro murakkabligi jihatdan bir xil bo'lib qoladi;

- o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar o'zining mazmuni va hajmi jihatdan tor doirada chegaralanib qoladi;

- ba'zi o'quvchilar notanish musiqa asarini mustaqil ravishda o'rganishga botina olishmaydilar.

Ushbu aytilganlardan kelib chiqib, aytish joizki, cholg'u mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni ijrochilik malakalarini rivojlanishlari uchun faollik, mustaqillik va ijodiy tashabbusga yetarli e'tibor berilmaydi. Ushbu kamchiliklarni diqqat bilan tahlil qiladigan bo'lsak, ta'lim jarayonida repertuarning chegaralanganligi, mustaqil ishlashga e'tiborni sustligi, o'quvchida mustaqil faollik, tashabbus, ijodiy yondashish ko'nikmalarini

rivojlantirishga ikkinchi darajali vazifa deb qaralishi asosiy sabablar degan xulosa chiqarish mumkin.

O'quvchilarni cholg'u ijrochiligiga tayyorlashda ularni umummusiqiy rivojlanish imkoniyatlarini o'quv-tarbiya ishidan tashqarida emas, balki, aynan shu jarayon mazmunida aks ettirish lozim. Savol tug'ilishi mumkin: O'quvchilarning ijrochilik sifatlarini maqsadga muvofiq holda rivojlanishi uchun ijrochilik mashg'ulotlari qanday tashkil etilishi zarur? Bu savolga asosli javob topish uchun, pedagogikaning didaktik prinsiplariga murojat qilish to'g'ri bo'ladi. Musiqa pedagogikasida to'rtta asosiy prinsipi bu o'rinda yetarli javob olish imkonini beradi.

- ta'lim jarayonida foydalaniladigan materiallar miqdori repertuarlarni kengaytirib borish;

- o'quvchilarning turli ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida o'zlashtirishlarini ta'minlash;

- mashg'ulotlar jarayonida nazariy, tarixiy ma'lumotlardan imkon boricha kengroq maqsadga muvofiq foydalanish, aniq misollar asosida tasavvur va tushunchalarni boyitib borish;

- o'quvchi-ijrochining musiqa materiali bilan ishlashida ularning mustaqillik hamda tashabbuskorligiga keng yo'l ochish, imkon yaratish.

Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirishning tarbiyaviy va kasbiy vazifalarining yana bir muhim jihati, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ishchan-ijodiy munosabatlaridir. Musiqa ijrochiligi bo'yicha ta'lim berishda, o'qituvchining sozandalik mahorat va tajribasini o'zi yetarli bo'lmaydi. Unda pedagogik fikrlash, tahlil qilish, o'quvchining ichki dunyosiga kira bilish, uning individual xususiyatlarini bilaolishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchining pedagogika, psixologiya sohalaridan yetarlicha xabardor bo'lishi o'ta muhim.

O'quvchilar mashg'ulotlar davomida o'qituvchining har bir hatti-harakati, fikrlari, ko'rsatmalari, muomala madaniyatini kuzatib, baho berib boradilar. Shu bilan birga ayrim o'quvchilar muammolarni bir taraflama, ya'ni emotsional ta'sirga berilgan holda hal etishga urinadi. O'z shogirdining tabiatini yaxshi o'rganib, o'ziga xos yondoshuvchi o'qituvchi bunday paytda o'quvchiga muayyan holatdan to'g'ri xulosa chiqarib olishiga yordam berishi kerak. O'qituvchi har doim o'z fikrini haqiqiy dalillar asosida tushuntira bilishi lozim.

O'zaro ishonch va yaxshi munosabatning ta'lim sifatiga ta'siri pedagogika fanida asoslangan. Agar o'qituvchining so'zi bilan amaldagi ishlari orasida to'la mutanosiblik bo'lsa, bu mashg'ulotlarni faol va qiziqarli bo'lishiga ham o'z ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Muomalada to'g'rilik, qat'iylik va kamtarlikni o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar. O'qituvchi o'z bilimini doimiy takomillashtirib borishi, o'zgalar tajribasini o'rganib, o'z amaliyotida foydalanishi, o'z mashg'ulotlari bilan taqqoslab tahlil qilishi lozim. O'qituvchi o'quvchining fanga munosabatini qadrlashi, uning shaxsiy kamchiliklarini asta-

sekinlik bilan bartaraf etib borishga intilishi, uning professional obro'si va umumiy madaniyatini ifoda etadi.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida asosiy diqqat e'tibordagi shaxs bo'lib, uning pedagogik mahorati va intellektual madaniyati o'quvchini ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijrochilik malaka va ko'nikmalarini shakllantirish murakkab pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, bunda o'quvchining mustaqil ishlashi alohida ahamiyatga molikdir.

Agar o'quvchi cholg'u ijrochiligi bo'yicha faqatgina dars jarayonidagi mashg'ulot bilan cheklanib qolsa u hech qachon kutilgan darajadagi bilim, malaka, ko'nikma va mahoratni egallay olmaydi. O'qituvchi rahbarligida o'tiladigan dars bu hal qiluvchi jarayon, lekin, mustaqil ishlash orqali olingan bilimlarni mustahkamlash, mukammallashtirish, takomiliga yetkazishida muhim omildir. Cholg'u asboblari ijrochilikning dastlabki davridan boshlab o'quvchilarda muntazam ravishda mustaqil ishlash ko'nikmasini hosil qilish pedagogikaning eng muhim tamoyillaridandir. Odatda muntazamlikka erishish qiyin bo'lsa ham, bunday mashg'ulotlar asta-sekin odat tusiga kirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Ayrim o'quvchilarning uyga berilgan vazifalarini o'z vaqtida tayyorlay olmasligini uning darsga bo'lgan yomon munosabati bilangina izohlash to'g'ri bo'lmaydi. Unda uning dars mazmun va mohiyatini, kasbiy mahorat uning kelgusi faoliyatida qanday ahamiyat kasb etishni to'g'ri baholay olmasligi, asarni mustaqil o'rganishga qanday yondashish kerakligini bilmasligi bilan ham bog'liqdir. Shuning uchun mustaqil ish vazifasi, mohiyati, qaysi o'rinlarga qanday yondashish lozimligi batafsil tushuntirilishi va o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirilishi zarur.

Ba'zan mustaqil mashg'ulotlar paytida o'quvchi yoki havaskor cholg'uchi berilgan musiqa asarini boshdan oxirigacha takrorlayveradilar. Bunda musiqa asarining ma'nosi va o'ziga xos xususiyatlari to'laligicha talqin qilinmaydi.

Mustaqil mashg'ulot qanday bo'lishi kerak? Ta'kidlab o'tilganidek mustaqil vazifa qanchalik aniq, tushunarli bo'lsa, ijrochining vazifasi shuncha osonlashadi. O'quvchining musiqa asari ustida ishlashi reja asosida olib borilishi yaxshi natija beradi. Quyida mustaqil mashg'ulotlarining taxminiy tuzilishi va vaqti haqida o'z fikrlarimizni bildiramiz.:

1. Mashqlar – gamma, etyud, barmoqlarni turli pozitsiyalarda texnik harakatini yaxshilash uchun 10-15 daqiqa,
2. Berilgan vazifani o'zlashtirish uchun 15-20 daqiqa,
3. Oldin o'rganilgan asarlarni takrorlash uchun 20-25 daqiqa,

Bu vaqt me'yorlari taxminiy bo'lib, uni belgilashda o'quvchining individual imkoniyatlari hisobga olinishi lozim bo'ladi. Vazifalar hajmi ham asarlarni katta – kichiklik va murakkablik darajasiga qarab belgilanishi mumkin.

Musika asarini yod olish har bir o'quvchining qobilayati va imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu borada barcha uchun bir xil ko'rsatmalar bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Musika asarini o'rganishda rubob (istalgan cholg'u asbobi) partiyasi bilan birgalikda fortepiano (jo'rsoz) partiyasini puxta o'rganish, o'quvchining ijrochilik mahoratini, ayniqsa, eshitib ijro etish, ansambllik, ko'p ovozlilikni his etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga kuchli ta'sir etadi.

Asarni ijro etishda o'quvchi o'z partiyasini ijro etish davomida fortepianoda ijro etilgan partiyani ham o'ziga singdirib boradi. Cholg'u va fortepiano ijrosi uchun yaratilgan musika asarlarida quyidagi jahatlar ko'zga tashlanadi. Ba'zi musika asarlarida fortepiano cholg'uchiga (solist) ga jo'r bo'lish vazifasini bajarsa, boshqa musika asarlarida cholg'u bilan fortepiano partiyalari bir-biriga monand bo'ladi. Birinchi holda kuyni boshqarib borish asosan cholg'uchiga yuklatiladi. Forteplano faqat jo'rlik (akkompaniment) vazifasini o'taydi.

O'zbek xalq cholg'ularida ijroni o'rganayotgan yosh sozandalarda fortepiano bilan birgalikdagi ijro paytida ko'proq uchrab turadigan kamchiliklardan biri, musika asari ijrosini fortepiano bilan bir vaqtda boshlay olmaslikdir. Ijroni fortepiano bilan birgalikda boshlash ko'nikmasini shakllantirishda musika asarining birinchi tovushi boshlanishidan oldingi harakat muhim rol o'ynaydi. Buni dirijorlik ko'rsatmasidagi «auf takt» ga o'xshatish mumkin. Forteplano partiyasi solist- cholg'uchi partiyasi bilan uzviy bog'langan bo'lib, musika asarlarining bir butunlikdagi kompozitsiyasini tashkil etadi.

O'quvchi tomonidan to'la o'zlashtirilgan musika asari pirovard natijada sahnada (baholash paytida, konsertda) ijro etiladi. Sahnaga chiqish uchun o'quvchi alohida tayyorgarlik ko'rishga to'g'ri keladi. Asarni yod olish sahna ijrosi uchun yetarli emas, unda ijrochining hayajonlanishi, o'zini xotirjam tutishi, sahna madaniyatiga ega bo'lishiga e'tibor qaratish kerak. Sifatsiz cholg'u, shart-sharoitning noqulayligi (sovuqlik yoki haddan ziyod issiqlik va hokazolar) sabab bo'ladi. Hayajonlanishni keltirib chiqaradigan sabablardan qat'iy nazar, uning asosida o'quvchining psixologik holati asosiy o'rin tutadi.

Hayajonlanishga yana bir sabab musika asarini ijrochi o'quvchi tomonidan yaxshi o'zlashtirmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Buni o'zi anglab yetgan o'quvchi sahnaga chiqqach, undagi hayajon yanada kuchayadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sahnadagi ijroni o'quvchi repertuaridagi ishonchli, osoyishta harakatdagi musika asari bilan boshlagan ma'qul. Bu o'quvchining hayajonini bir qadar pasayishiga, fikr, diqqatini bir maqsadga qaratishiga yordam beradi. Sahnada ijrosidan oldin o'quvchida o'z ijrosiga nisbatan ishonch o'yg'otish muhim.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim jarayonida o'quvchini cholg'u ijrochiligi bo'yicha ijrochilik ko'nikma, bilim, malakalarini shakllantirishda pedagog – o'qituvchilarning o'rni va ahamiyati juda katta. Cholg'u sinfida mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchilarning faoliyati

faqat dars o'tish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu o'rinda uning faoliyat doirasi juda keng va serqirra bo'lishi kerak. Bunga:

1. Ta'lim – tarbiya jarayonini mazmuni, vazifalarini belgilash, a) tashkiliy – mazmunli mashg'ulot,

2. Ta'lim – tarbiya jarayonida o'qituvchi – o'quvchining o'zaro aloqa, munosabatini jamoatchilik bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish,

3. Ta'lim – tarbiya jarayonining rejasini amalga oshirishga doir tashkiliy ishlar,

4. Har bir o'quvchining musiqiy ijrochilik malakalarini rivojlanishini kuzatib borish, shunga oid vazifalarni belgilash,

5. O'quvchilarda ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlarning muayyan jamlanmasini – g'oyalar, qadriyatlarni, ehtiyoj, qiziqish, didlarni shakllantirishga, faoliyat va hatti-harakatlarni bir maqsadga yo'naltirishga doir ishlar,

6. Ijrochilik ishlari: o'quvchilarga, jamoatchilikka o'zining ijrochilik san'ati bilan badiiy ta'sir ko'rsatishi (o'rnak, namuna).

7. Musiqiy – estetik bilimlarni targ'ib qilish, badiiy havaskorlik ishlariga o'quvchilarni keng jalb qilish. Bular musiqa o'qituvchisining butun kasb-korlik va ijtimoiy faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuni unutmash kerakki, musiqa o'qituvchisi bilimlarning strukturasini ijtimoiy-siyosiy, pedagogik-psixologik va maxsus bilimlar tashkil etadi. Ta'lim jarayonida har bir pedagog shundan kelib chiqib ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi lozim.

Ijtimoiy-siyosiy bilimlar shaxs dunyoqarashining asosi, undagi kasb-korlik va maxsus bilimlarning metodologik negizidir. Psixologik-pedagogik bilimlar o'qituvchining kasb-korlik tayyorgarligi uchun asosiy omil. Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi, individual xususiyatlar ijodiy o'ziga xoslikning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishni bildiradi.

Maxsus bilimlar umumiy musiqa pedagogikasining tarixi va nazariyasini ham, cholg'u ijrochiligi metodikasini ham o'z ichiga oladi. Mana shunday bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmatov H N . «Rubob» darslik , Toshkent., O'qituvchi 2002.
2. Azizxodjayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –Toshkent: Ma`rifat, 2000.
3. Abralova M., Galiyeva D., Qo'shayev A. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008.

7. Qashqar rubobida ijro etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.

Reja:

- 1. Musiqiy asarlarni qismlarga bo'lib o'rganish.**
- 2. Mustaqil va amaliy ishlash yo'llari.**
- 3. Mashg'ulotlar turlari- individual, guruh va ansamblda ishlash.**
- 4. Repertuar tanlashga qo'yiladigan talablar.**
- 5. Oddiydan murakkabga tamoyiliga asoslanish.**

Tayanch iboralar: *pe'sa, konsert, variatsiya, emotsional-estetik ta'sir, kompaniator.*

Oliy pedagogik o'quv yurtlarining «Musiqiy ta'lim» yo'nalishidagi asosiy mutaxassislik bo'lgan «Cholg'u ijrochiligi» fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlari bo'lajak musiqa o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Chunki, musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati eng avvalo biror bir cholg'u asbobini mukammal egallashni talab qiladi. Buni umumta'lim maktablari musiqa o'qituvchisi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bir soatlik dars jarayonida o'qituvchi darsning eng asosiy faoliyatlarida o'zining cholg'uchilik ijrosidan foydalanadi. Musiqa tinglash faoliyatida musiqa asarini jonli ijro etib beradi. Ijro qanchalik badiiy mahorat bilan ijro etilsa, uning o'quvchilarga emotsional-estetik ta'siri ham shuncha yuqori bo'ladi. Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash faoliyatida o'qituvchi cholg'u sozida akkompaniator sifatida ishtirok etadi. Musiqa savodi faoliyatida ham nazariy qoidalarni, misol va mashqlarni cholg'u asbobi misolida ko'rsatib berishga to'g'ri keladi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarini tugatgan talabalarni cholg'u ijrochiligi bo'yicha havaskorlik to'garaklarida, bolalar ijodiyoti markazi, hatto ixtisoslashgan musiqa maktablarida ham faoliyat ko'rsatish huquqiga ega ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati nihoyatda ko'p qirrali ekanligi, bu o'rinda uning cholg'u ijrochilik bo'yicha bilim va malakalari juda katta ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ladi. Shu bois pedagogika oliy o'quv yurtidagi tahsil davomida talabalarni, ya'ni bo'lajak musiqa o'qituvchilarini cholg'u ijrochiligi bo'yicha talab darajasida bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish oliy ta'limdagi pedagog-o'qituvchilardan o'z ishlariga yuqori talabchanlik va ma'suliyat bilan yondoshishni taqozo etadi.

Ma'lumki, ixtisoslashgan musiqa maktablari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining «Cholg'u ijrochiligi» mashg'ulotlari o'quvchilarni musiqiy qiziqish va qobiliyatlari bilan bir qatorda ularning musiqiy nazariy savodxonligini o'stirish, cholg'u asboblarida ijro etishning badiiy, texnik va

obrazli malakalarni puxta egallashlarini ko'zda tutadi. Cholg'u ijrochiligi sinfida o'quvchilar bilan guruhlarda, individual va mustaqil ishlashning ancha keng va real imkoniyatlari mavjud. Misol tariqasida cholg'u ijrochiligi qashqar rubobi sinfi mashg'ulotlarida o'z – o'zidan ko'rsatib berish, tinglash, nazariy ma'lumot va qoidalariga tayanish, asar janri, xarakteri kabilarga tayanishga majbur bo'lamiz.

Asarni qismlarga bo'lib o'rganish, sanab chalish, varaqdan o'qish, cho'zimlarni aniq ifodalash, ritmni to'g'ri aniqligi, rubob pardalarida tovushlar joylanishi, mediatori to'g'ri ushlash, simlarda erkin, ravon, bir tekis yurgizish, tovush cho'zimini sanash bilan ma'noli ohanglar hosil qilish, **aksent, tremolo, liga, ligato, stakkato** kabi shtrixlarni o'zlashtirib borish doimiylik va davomiylik tamoyillari asosida ish tutishni talab qiladi.

Musiqqa xarakterini ifodalash uchun aniq bilimlar zahirasiga ega bo'lishlik tabiiy zarurat hisoblanadi. Bu esa o'z - o'zidan nazariy mashg'ulotlarni chuqurroq o'zlashtirib borishlikni taqozo etadi va shu bilim ularni mustahkamlashga imkoniyat yaratadi.

Mashg'ulotlarda vaqtdan unumli foydalanish, o'quvchilarni mustaqil va ijodiy ishlashlariga ko'proq e'tibor qaratish va o'quvchilarda unga faol munosabat uyg'otish nisbatan ko'proq mehnat qilishlariga to'g'ri keladi. Bu esa, ularni musiqaning boshqa fanlar bo'yicha ham muvaffaqiyatli natijalarga erishishlariga ijobiy ta'sir etadi.

Musiqqa (qashqar rubobi) asbobida chalishda (darslar guruh holidagi bo'lganida), jo'rnavozlik qilish, boshqalarni eshitish, birgalikda ijro etish, boshqalarni ijrosini kuzatish darslar «individual», ya'ni «yakka tartibda» o'tilishiga nisbatan farq qiladi. Yakka tartibdagi darslarda bilamizki o'qituvchilarni ko'rsatmalariga rioya qilish, kamchiliklarni uni ishtirokida tuzatish yetakchi rol o'ynaydi. Guruh holidagi mashg'ulotlarida soz, ansambllikka rioya qilish, boshqalar ijrosini eshitib chalish kabilarni musiqiy xotira, diqqat, eshituv (slux) va umumiy musiqiy qobiliyatlarni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlari guruh tarzida tashkil etilishida rubob chalish elementar qoidalar, talablar, unsurlarni yetarli darajada o'zlashtirib olgandan so'ng, o'quvchilar o'zlariga berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishlari birgalikda va yakka holda chalishda, rahbar o'qituvchining yo'l – yo'riqlariga amal qilib, ijrochilik texnikasiga oid malakalarni egallab borishadi.

Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida o'quvchilarni qobiliyatiga qarab turli murakkablikdagi, turli janr, xarakterdagi, o'zbek xalq kuylari, zamonaviy kompozitorlar asarlarini va albatta qordosh xalqlar musiqqa namunalari, shuningdek, chet el kompozitorlarining zamonaviy hamda murakkab janrlarga xos (simfoniya, opera musiqalari, sonata, syuitlardan qismlarini) asarlarni o'rganish jarayonida ularning cholg'u mahorati bilan birga musiqiy – badiiy dunyoqarashi va tafakkuri ham rivojlanib boradi.

Guruh darslarida o'quvchilarni ansambl bo'lib ijro etishlari davomida, turli xalqlarning milliy, klassik, ayrim kompozitorlarning asarlarini birgalikda

tinglashlarini tashkil etish, o'z ijrolari xususida suhbatlashishlari, bir – birlarini yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishlari, ularda o'zaro ijodiy raqobat muhitini yaralishiga olib keladi va ularda asarlarni badiiy, texnik jihatdan mukammal o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoq, intilishlarini kuchaytiradi, o'z ustida ko'proq ishlashga undaydi.

Ma'lum bir asarni o'rganishdan oldin uni tinglash, so'ngra asar haqida tahliliy suhbat o'tkazish, bu o'rinda o'qituvchining tushintirishlari, kerakli manbalarga tayanib, ish tutish, qisqa va foydali sharhlar, ibrat ko'rsatish o'quvchilarni o'ziga berilgan asarlarni har jihatdan mukammal va tez o'zlashtirishga mas'uliyatini oshiradi, ularni intizomli bo'lishga odatlantiradi va tizimli ishlashga o'rgatib boradi.

Shu o'rinda cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida alohida o'rin tutuvchi elementlarga to'xtalib o'tamiz:

Rubob cholg'usida ijro etish uchun bir qancha milliy bezaklardan unumli foydalanish lozim. Ijro etish malakalarini shakllantirishga oid bir nechta milliy bezaklarni ko'rib chiqamiz:

1. **N a x s h l a g** – o'zidan oldingi nota hisobiga ijro etiladigan qisqa forshlag **naxshlag** deb ham ataladi va u quyidagi ko'rinishda uchraydi:



2. **Q o' s h f o r s h l a g** – yonma-yon joylashgan ikki qisqa forshlagdan iboratdir. U ham o'zidan oldingi asosiy tovush hisobiga juda qisqa ijro etiladi:



3. **U c h t a l i k f o r s h l a g** – xuddi shuningdek, o'zbek xalq musiqasida uchtalik forshlag ham tez-tez uchrab turadi. Uchtalik forshlag asosan bir tovushning takrorlanishidan iborat bo'lib, u ham o'zidan oldingi nota hisobiga juda tez ijro etiladi:




4. **T r y e l** – asosiy tovushning yuqorigi qo’shni pog’ona bilan birin – ketin tez va uzluksiz qaytarib chalinishiga **trel** deyiladi. Trel notaning ustiga qo’yilgan **tr** belgisi bilan ko’rsatiladi:



5. **M o r d e n t** – yoki chizilgan mordent asosiy yordamchi tovushni tez qaytarishdan iborat. Kesib o’tgan chiziq yuqorigi yordamchi tovush o’rniga pastgi yordamchi olinishi kerakligini bildiradi:



6. **G l i s s a n d o** – bir tovushdan boshqa bir tovushga sirg’anib o’tish usuli bo’lib, asosan bir barmoqda hosil qilinadi. Glissando to’lqinsimon chiziq tortish yoki qisqartirib **gliss.** so’zini yozish bilan belgilanadi:



7. **V i b r a t s i y a** – tovushni to’lqinlantirish degani. Rubobda bu usul pardaga bosilgan chap qo’l barmoqlarini tez va bir tekis ko’ndalangiga harakatlanish bilan hosil qilinadi va notaning ustiga to’lqinsimon chiziqcha tortish bilan ko’rsatiladi.

8. O’quvchi (talabalar) ni ijrochilik ko’nikma va malakalarini


shakllantirish uchun metodik tavsiyalar:

Nota matnini oldindan ko'z oldiga keltirib o'qish, musiqa qismlarini ovozda imitatsiya qilib, so'ng cholg'u asbobida chalish, varaqdan o'qish va chalish malakalarining muvaffaqiyati, o'quvchilarning umumiy musiqiy kamolotiga, ijrochilik malaka va ko'nikmalarini yaxshi shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi.


Ochiq torlarda turli usullar (shtrixlar) ijro etish mashqlari

1-mashq





10-mashq



Pauza va sinkopali notalar

11-mashq




12-mashq



13-mashq



14-mashq



Teskari zarblar

15-mashq



16-mashq



ETYUDLAR

№ 1 Etyud

O'rtacha tez

Ye. Gnesina- Vitachok

№ 2 Etyud

Jonli

A.Yanshikov

№ 3 Etyud

O'rtacha tez

N.Baklanova

O'quvchi (ijrochini) texnik mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan to'rtinchi etyudda rez usuli (bidratma, tremolo) lar qo'llanilganiga alohida e'tibor berish lozim.

№ 4 Etyud

Shoshilmasdan

M. Garliskiy



№ 5 Etyud

Tezroq

A.Kamarovskiy



X U L O S A

Musika madaniyati va ijrochilik san'ati inson ruhiyatining badiiy in'ikosi sifatida ijtimoiy hayotimizda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, musika san'atida iqtidorli, qiziqishi bo'lgan o'quvchi yoshlarni musiqaning muayyan yo'nalishlarida maxsus ta'lim olishlari, ularni badiiy, ma'naviy va estetik jihatdan kamol toptirish bilan birgalikda ularni o'zlari istagan musika san'ati sohasida zarur bilim va ijrochilik sirlarini egallashlari uchun zarur shart-sharoit yaratish cholg'uchi sozanda sifatida shakllantirish hozirgi faqtda musiqiy – ta'limning oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Musika san'atining tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u kishining ongini o'stirish, hissiyotini boyitish, irodaviy sifatlarini rivojlantirishning emotsional ta'sirini oshiradi. Shuni yoddan chiqamaslik kerakki, yosh avlodni musiqaning sehrli olamiga olib kirish, ularda olamni san'atning go'zallik qoidalari yordamida ko'rishga, anglashga, his etish va sevrishga o'rgatishda musika o'qituvchilarining musiqaning nazariy va amaliy sohalaridan etarlicha kasbiy tayyorgarlik va malakaga ega ekanliklari muhim rol o'ynaydi. Bunday sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchilar faoliyati musika mashg'ulotlari samarali kechishiga xizmat qiluvchi yordamchi vositalarni atroflicha o'rganish natijasida shunday xulosalarga keldik:

1. O'quvchilarni cholg'u ijrochilik sinflarida o'qishini muvoffaqiyatli tashkil etish eng avvalo bu borada mavjud pedagogik shart-sharoitlarning holatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

2. Pedagogik shart-sharoitlar bir qancha aspektlarni-moddiy, ma'naviy omillarni o'z ichiga oladiki, bu o'rinda zamonaviy fan-texnikaning ilg'or yutuqlaridan unumli foydalanish, musika ta'limining har yo'nalishida qay bir darajada «orqada» qolmasligiga intilish zarur.

3. Cholg'u asboblarni o'rganishda muhim texnik vositalar o'z mohiyati, mazmuni va qo'llanish vazifalariga ko'ra ta'limni osonlashtirish, ularni sifatli, qulay, yengil, ta'sirchan, qiziqarliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, o'quvchilarni ijrochilik mahoratini shakllantirishda uning imkoniyatlari beqiyos bo'lib, endilikda har bir o'qituvchining ta'lim jarayonida zamonaviy texnik vositalar bilan yetarlicha ta'minlanishiga erishish shart.

4. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, xalq ta'lim vazirligi va ta'limni boshqarish va unga rahbarlik qilishga mas'ul Respublika ta'lim markazlarida musika darslarini texnik ta'minoti bo'yicha maxsus markazlar tashkil qilish zarur.

5. Ushbu markazlar o'z ishini musika fani bo'yicha Davlat ta'lim standarti (DTS) darajasida tashkil etish bo'yicha zarur moddiy va texnik ta'minot dasturini ishlab chiqishlari lozim.

6. Musika o'qituvchilarining o'zlari ta'lim berayotgan o'quvchilarida ijrochilik sifatlarini qay darajada shakllantirishlari, ularning ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va izlanuvchanligiga ko'p jihatdan bog'liqligini unutmashliklari darkor. Chunki, metodik jihatdan mahoratli o'qituvchi har qanday sharoitda

ham turli texnik vositalardan, audio tasmlar, musiqiy markazlar, magnit lentalaridan, kompyuterlardan foydalangan holda musiqa darslarini muvaffaqiyatli tashkil eta oladi.

Shunday ekan, zamonaviy musiqa o'qituvchisi barcha imkoniyatlardan foydalangan holda o'z shogirdlarining musiqani amaliy va nazariy sohalaridan zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun turli texnik, ko'rgazmali qurollardan samarali foydalangan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etishga birinchi darajali vazifasi deb qaromog'i va shu asosda ish tutmog'i lozim.

Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida o'quvchilarni ijrochilik malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda samarali ish usullaridan tizimli foydalanish, ta'limning sifat va samaradorligini kafolatlaydi. O'zi o'rganayotgan cholg'u sozi va musiqa asarlarini nazariy va ijrochilik nuqtai nazaridan tahlil qilish, qiyoslash, taqqoslash, o'z xato va kamchiliklarini anglash, ularni bartaraf qilishni to'g'ri yo'llarini izlashga, mustaqil o'z ustida ishlashga rag'batlantiradi. Bularning barchasi ko'zlangan maqsadga erishishda eng muhim pedagogik omili bo'lib xizmat qiladi.

Ilovalar

DO'LONCHA

Tez **Xalq kuyi**

ARCHA QO'SHIG'I

Yengil **Ik. Akbarov musiqasi**

TURKMANCHA

Yengil

Xalq kuyi



QASHQARCHA

Yengil **Xalq kuyi**

ARUXON

O'rtacha tez **Xalq kuyi**

YALLAMA YORIM

Shoshilmasdan

Xalq kuyi



BAHOR QO'SHIG'I

Marsh tempida

G'.Qodirov musiqasi

A piano score for the song 'Bahor Qo'shig'i'. It consists of three systems of staves. The first system has a single melodic staff and a piano accompaniment. The second system has a single melodic staff and a piano accompaniment. The third system has a single melodic staff and a piano accompaniment. The music is in 2/4 time and G major. Dynamics include *p*, *mf*, *f*, and *mp*.

p

mf

f

mp

GULLOLA

Moderato

Il.Akbarov musiqasi

1 4 1 3 1 4 2 1 3 1 2 4 1 3 1 4 2

3 1 4 2 1 2 1 3 4 1 2 1 2 4 2 1 3 1 2 4

1 4 1 3 1 4 2

1 3 1 2 4 1 3 1 3 4 2

GULXAN

Moderato-O'rtacha tez

D.Zokirov musiqasi

4 2 4 2 1 2 1 2 1 1 1 2 1

mf

rit. *p*

2 4 2 4 2 4 2 1 2 4 2 1 1

mf

1 2 1 1 1 3 2 1 2 1 4 2 1 1 2 1 2 1 4

f

2 4 1 2 1 1 4 2 1 1

mf

1. 2. 1. 2.

OHANGARON

Allegro

M. Leviyev musiqasi

The musical score for "OHANGARON" is written for piano and voice. It is in the key of D major (indicated by two sharps) and 2/4 time. The tempo is marked "Allegro". The score is composed of four systems. The piano part (bottom staff of each system) provides a rhythmic foundation with chords and single notes. The vocal part (top staff of each system) features a melody with various ornaments and fingerings. The score includes dynamic markings such as *mf* (mezzo-forte) and *p* (piano). The piece concludes with a double bar line and repeat signs.

This musical score is written for a piece in G major, consisting of a piano accompaniment and a solo melody. The score is divided into four systems, each with a single treble staff for the melody and a grand staff (treble and bass) for the piano accompaniment.

- System 1:** The melody begins with a whole rest, followed by eighth-note patterns. Fingerings 1, 2, 1, 2, 1, 2, 3, 1, 2, 1, 2, 4 are indicated above the notes. The piano accompaniment features a steady eighth-note bass line and chords in the right hand.
- System 2:** The melody continues with eighth-note runs. Fingerings 2, 1 are shown. The piano accompaniment maintains the same rhythmic pattern.
- System 3:** The melody includes a repeat sign. The first ending is marked *f* (forte), and the second ending is marked *mp* (mezzo-piano). The piano accompaniment has a repeat sign and a sustained bass note in the second ending.
- System 4:** The melody concludes with a final cadence. Fingerings 4, 2, 1, 2, 1, 2, 4, 1, 2 are indicated. The piano accompaniment ends with a final chord.

RUSCHA RAQS

I. Balmatov qayta ishlagan
Q. Usmonov rubobga moslashtirgan

Mo'tadil

The musical score is written for a melody and piano accompaniment in 2/4 time. The key signature has one sharp (F#). The score is divided into four systems. The first system is marked 'Mo'tadil' and includes a piano (p) dynamic. The second system features triplets (3) in the melody. The third system includes markings for 'm.g.' (mezzo-gusto) in the piano part. The fourth system includes a trill (tr) in the melody and a quintuplet (5) in the piano part.

Og'irlashtirib

pp

sf

sf

Tez

ff

First system of musical notation. The top staff (treble clef) contains a melodic line with eighth and sixteenth notes, ending with a *p* (piano) dynamic marking. The bottom staff (bass clef) contains a harmonic accompaniment with chords and single notes, also marked *p*.

Second system of musical notation. The top staff continues the melodic line with various note values and rests. The bottom staff provides a steady harmonic accompaniment with chords and single notes.

Third system of musical notation. The top staff features a more active melodic line with many sixteenth notes, marked *ff* (fortissimo). The bottom staff continues the harmonic accompaniment, marked *f* (forte).

Fourth system of musical notation. The top staff continues the active melodic line with sixteenth notes and rests. The bottom staff provides a consistent harmonic accompaniment with chords and single notes.

The first system of musical notation consists of three staves. The top staff is a single melodic line in treble clef, featuring a sequence of eighth and sixteenth notes with various accidentals. The middle and bottom staves are grouped as a piano accompaniment in grand staff notation, with the middle staff in treble clef and the bottom staff in bass clef. The accompaniment features chords and single notes, some with rests.

The second system of musical notation consists of three staves. The top staff continues the melodic line. The middle and bottom staves are piano accompaniment. The middle staff has a forte (*ff*) dynamic marking. The bottom staff also has a forte (*ff*) dynamic marking. The music features a mix of eighth and sixteenth notes and chords.

The third system of musical notation consists of three staves. The top staff continues the melodic line with eighth notes. The middle and bottom staves are piano accompaniment, featuring chords and single notes with rests.

The fourth system of musical notation consists of three staves. The top staff continues the melodic line, ending with a half note. The middle and bottom staves are piano accompaniment. The middle staff has a forte (*fff*) dynamic marking. The bottom staff also has a forte (*fff*) dynamic marking. The music features sustained chords and single notes.

DAVRA QO'SHIG'I

S.Yudakov musiqasi,
Q.Usmonov rubob uchun moslagan

Moderato

The musical score is written for a rubob and piano. It consists of five systems of staves. The first system shows the rubob melody in the upper staff and piano accompaniment in the lower staff. The tempo is marked 'Moderato'. The key signature is one sharp (F#). The time signature is 2/4. The score includes various musical notations such as notes, rests, and dynamic markings like *f* (forte) and *mp* (mezzo-piano). The rubob melody is characterized by its distinctive intervals and ornamentation. The piano accompaniment provides a harmonic and rhythmic foundation. The score concludes with a final cadence in the fifth system.

This musical score is arranged in four systems, each consisting of a vocal line (treble clef) and a piano accompaniment (grand staff). The notation includes various musical symbols such as notes, rests, and dynamic markings.

- System 1:** The vocal line begins with a dotted quarter note, followed by eighth notes. Fingerings 1, 2, 4, and 2 are indicated above the first four notes. The piano accompaniment features a rhythmic pattern of eighth and sixteenth notes. A forte (*f*) dynamic marking appears in the fourth measure of the piano part.
- System 2:** The vocal line continues with eighth notes. The piano accompaniment maintains the rhythmic pattern. A mezzo-piano (*mp*) dynamic marking is present in the first measure, and a forte (*f*) marking is in the fourth measure.
- System 3:** The vocal line includes a sequence of eighth notes with fingerings 1, 2, 4, 2, 1, 2, 1, and 2. The piano accompaniment continues with eighth and sixteenth notes. A mezzo-piano (*mp*) dynamic marking is in the first measure, and a forte (*f*) marking is in the fourth measure.
- System 4:** The vocal line concludes with eighth notes. The piano accompaniment continues with eighth and sixteenth notes. A forte (*f*) dynamic marking is in the fourth measure.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Iqtisod, 2008.
2. Abdullayev K. Nodir topilma., O'zbekiston madaniyati, 23 oktyabr., 1973
3. Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана., Москва, 1933
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent: Ma'rifat, 1997.
5. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quvdasturi. – Toshkent: Musiq, 1999.
6. Uzviylashtirilgan Davlat Ta'lim Standarti va o'quvdasturi. – Toshkent: Musiq, 2010
7. Azizxodjayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: Ma'rifat, 2000.
8. Abralova M., Galiyeva D., Qo'shayev A. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008.
9. Akbarov. I. Musiq lug'ati. – Toshkent: San'at, 1997.
10. Визго Т.С. Судба Афрасиябской лютия., Sharq musiqasi Toshkent. 1980
11. Визго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии (Исторические очерки). – Москва, 1980.
12. Ibrohimov O. va boshq. O'rta maktab 7-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2008.
13. Karimova D. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. – T.: TDPU, 2008.
14. Mansurov A., Karimova D. Musiq. 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
15. Nurmatov H N. «Rubob» darslik, Toshkent., O'qituvchi 2002
16. Odilov A. «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi» Toshkent.; 1995
17. Odilov A.I. O'zbek xalq cholg'u asboblari tarixi. – Samarqand: SamDU, 2010.
18. Petrosyans A.I. Cholg'ushunoslik. – Toshkent: San'at, 1990.
19. Soipova D. Musiq o'qitish nazariyasi va metodikasi. – T.: 2009.
20. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-10 jildlar. – T.: O'zME, 2006.
21. Fitrat A. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" O'zbekiston. Respublikasi, FA Toshkent., «FAN» nashriyoti., 1993
22. Qudratov I. O'quvchilarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. – Toshkent: Fan, 2009.
23. Qo'chqorov G'. O'zbek milliy cholg'ularini o'rganaylik. – Toshkent: Musiq, 2002.
24. Hasanov A. Musiq va tarbiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.

Mundarija

Kirish	3
1. O'zbek milliy cholg'u sozlarining tarixiy shakllanish jarayonlari va turlarining tavsifi.....	5
2.O'zbek xalq cholg'u asboblarning turlari	12
3. O'zbek xalq cholg'ularining ta'lim jarayonida qo'llanilishining maqsad va mohiyati	30
4. Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarining tashkiliy uslubiy asoslari	34
5. Cholg'u mashg'ulotlarida ijrochilik malakalarni shakllantirishning texnik shartlari.....	42
6. O'quvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirishning tarbiyaviy tamoyillari.	54
7. Qashqar rubobida ijro etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.	60
8. O'quvchi (talabalar) ni ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun metodik tavsiyalar	64
Umumiy xulosalar va tavsiyalar.....	69
Ilovalar	70
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	83

**Qudratov Ismatilla
Odilov Asqarali**

**Cholg’u asbobida ijrochilik ko’nikma va
malakalarni shakllantirish**
(Qashqar rubobi misolida)

(Ulubiy qo’llanma)

Muharrir G.Rahimova
Musahhih G.Rahimova
Tex.muharrir B.Egamberdiyev

Bosishga yilda ruxsat etildi.
Qog’oz bichimi 60x84 1\ 8.Hajmi 10 b.t.
Buyurtma № Adadi nusxa

*Samarqand Davlat universitetining kichik bosmaxonasida
kompyuterda terilgan nusxasidan chop ‘tildi
703004,Samarqand sh.Universitet xiyoboni, 15.*

Mualliflar

Qudratov Ismatilla 1956 yil 15 yanvarda Samarqand viloyati, Urgut tumanida tug'ulgan. 1972–1975



yillarda Toshkent madaniy–oqartuv texnikumida, 1975 – 1979 yillarda Toshkent Davlat Madaniyat institutida “Xor - dirijorligi” mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olgan. 1979 – yildan boshlab ish faoliyatini Jizzax viloyat kasb hunar boshqarmasi madaniyat uyida xormestr vazifasida ishlashdan boshlagan. 1981 – 1986 yillarda Jizzax tumanidagi 1 – sonli bolalar musiqa maktabida o'qituvchi lavozimida ishlagan. 1987–yildan Jizzax davlat pedagogika institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat kursatgan. Qudratov Ismatilla 2006–yilda «**Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash**» mavzusida nomzodlik desirtatsiyasini himoya qilib, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini, 2007 – yil dosent unvonini

olgan. U 1 ta monografiya, 2 ta o'quv uslubiy qo'llanma, 1 ta uslubiy tavsiyanoma muallifi, 60 dan ortiq ilmiy maqolalari Respublika jo'rnallarida va respublika miqyosidagi konferensiyalar, xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materiallari to'plamlarida chop etilgan. I. Qudratov hozirgi vaqtda A. Navoiy nomli Samarqand davlat universitetining “Musiqa o'qitish metodekasi va xalq cholg'u asboblari” kafedrasida dotsenti lavozimida ishlab “Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi”, Vokal ijrochiligi, (bakalavriyat), Mutaxassislik fanlaini o'qitish metodikasi, Sharq xalqlari musiqa madaniyati, O'zbek halq musiqa me'rosini o'rganish davr taqozosi (magistr uchun) fanlaridan dars berib o'z faoliyatini olib bormoqda.

Odilov Asqarali Ismoilovich 1960 Samarqand shahrida tug'ilgan. U 1975–1979 yillar



Hoji Abdulaziz Abdurasulov nomidagi Samarqand davlat san'at bilim yurtida «G'ijjak sinfi» da ta'lim olgan. 1986–1990 yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida «Qashqar rubobi» mutaxassisligi buyicha ta'sil olgan. 1990 yildan boshlab Sadridin Ayniy nomidagi Samarqand Davlat pedagogika institutida o'qituvchi lavozimida ishlagan. 1992 yildan hozirga qadar Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida «Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasida o'qituvchi 2005 yildan katta o'qituvchi lavozimlarida faoliyat ko'rsatib kelayapti.

Odilovning 4 ta o'quv – uslubiy qo'llanma va 50 dan ortiq ilmiy maqolalari Respublika jo'rnallarida va respublika miqyosidagi konferensiyalar, xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materiallari to'plamlarida chop etilgan.

Hozirgi vaqtda muallif A.I. Odilov Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari kafedrasida «Cholg'u ijrochiligi», «Musiqa o'qitishning innovasion texnologiyalari», «Cholg'ushunoslik», «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari», (bakalavriyat) «Zamonaviy o'zbek musiqa madaniyati», «Nazariy musiqashunoslik» hamda «Zamonaviy xorijiy musiqaning asosiy yo'nalishlari» fanlaridan magistrlarga ta'lim berib kelmoqda.

ISBN 978-9943-976-39-9



9 789943 976399